

IRODA AZIMOVA

**MAXSUS FANLARNI
O‘QITISH METODIKASI**

Til ta'limiga oid fanlar moduli

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
VA O‘RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA DAVLAT UNIVERSITETI**

IRODA AZIMOVA ALISHEROVNA

**MAXSUS FANLARNI
O‘QITISH METODIKASI**

(Til ta'limiga oid fanlar moduli)

Uslubiy qo‘llanma

**«HILOL-NASHR»
TOSHKENT
2020**

UO'K 378.016:81

KBK 74.58 81.1

A 37

Mazkur uslubiy qo'llanma oliy ta'limning magistratura bosqichi filologiya yo'nalishlarida o'tiladigan "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" fani doirasida til ta'limiga oid fanlarni o'qitishning nazariy asoslari va amaliy tatbiqiga doir masalalarni qamrab oladi. Uslubiy qo'llanmada zarur nazariy ma'lumotlar va magistrantlarni ushbu fanga oid kerakli bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi uchun topshiriqlar yuzasidan tavsiyalar berilgan.

Uslubiy qo'llanma Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining o'quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (2-sonli majlis qarori, 2020-yil 24-sentabr).

Taqrizchilar:

M.Abdurahmonova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Klara Mavlonova, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

A 37 Azimova, Iroda Alisherovna

Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi (til ta'limi)

– T.: «Hilol-Nashr», 2020. – 96 b.

UO'K 378.016:81

KBK 74.58 81.1

ISBN 978-9943-6459-7-4

© Iroda Azimova Alisherovna

© «HILOL-NASHR» nashriyoti, 2020.

KIRISH

“Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi” fani magistr-larga o‘qitish jarayonlarini loyihalashtirish, modellashtirish, integrativ ta’lim tizimini tashkil etish, mazkur sohada tadqiqotlar olib borish, ta’lim bosqichlarida olib boriladigan ilmiy-metodik hamda pedagogik ish turlari, badiiy asarni tahlil qilishga oid metodik yondashuvlar, yetakchi tamoyillar, shuningdek, bo‘lg‘usi til va adabiyot o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishga yordam beradi.

Fanni o‘qitishdan maqsad – ta’limning turli bosqichlarida til va adabiyot turkumidagi fanlar mohiyatini hamda ularni o‘qitishdagi o‘ziga xosliklarni o‘rganishdan iborat.

Fanni o‘qitishning vazifasi – magistr-larga ta’limning turli bosqichlarida adabiyot fanlarining eng muhim ilmiy-nazariy asoslari; badiiy asar tahliliga bo‘lgan yondashuvlarning turlari va mohiyatini; turli xildagi adabiyot fanlarining ilmiy-nazariy, badiiy-estetik imkoniyatlarini ta’lim-tarbiya jarayoniga yo‘naltirish metodikasini o‘rgatishdan iborat.

Fanbo‘yichatalabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar. Fan bo‘yicha magistr-larning bilim, ko‘nikma va malakalariga quyidagi talablar qo‘yiladi.

Magistrant:

- mazkur o‘quv predmetining nazariy asoslarini; til o‘qitish nazariyalarini; metod va postmetod tushunchalarini, postmetod ta’lim tamoyillarini, til o‘qitish strategiyalarini bilishi, til o‘qitish jarayoniga ta’sir etuvchi tashqi va ichki omillari haqida tasavvurga ega bo‘lishi kerak;

- magistrant olingan nazariy bilimlari asosida til ta’limini rejalashtirish, samarali dars tashkil etish, o‘quvchining bilim va ko‘nikmalarini adekvat baholay olishi va unga mos ravishda o‘qitish strategiyalarini tanlashni bilishi va ulardan foydalana olishi;

- magistrant ta'limning turli bosqichlarida mazkur fan yuzasidan namunali dars o'tish, turli tadbirlarni o'tkaza olish, zamon talabidagi darslarni tashkil qila olish, shuningdek, ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab ta'lim-tarbiyaning metod va usullarini amaliyotga tatbiq eta olish hamda til o'qitish nazariyalarini va metodlarini tanqidiy tahlil qila olish, til ta'limi jarayoniga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillarning ta'sirini baholay olish va shu asosda samarali ta'limni rejalashtirish, o'quvchining bilimini adekvat baholash ko'nikmakalariga ega bo'lishlari lozim.

Fanning til ta'limi fanlarini o'qitish metodikasiga bag'ishlangan modulida ma'ruza mavzulari quyidagilardan iborat:

Til o'qitish nazariyalari

Til o'qitish metodlarining tanqidiy tahlili

"Postmetod" ta'lim tushunchasi va uning tamoyillari

O'rganish imkoniyatlari va strategiyalari

Ta'lim aktlari monitoringi

Amaliy mashg'ulot mavzulari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Til o'qitishga turli nazariy yondashuvlar

Til o'qitish metodlariga tanqidiy yondashuv

Til ta'limi va til standarti masalasi

Lingvistik bilimni kontekstda berish

MAXSUS FANLARNI O'QITISH METODIKASI FANINING TIL TA'LIMIGA OID FANLAR MODULI BO'YICHA MA'RUZA MASHG'ULOTLARINI O'TISH

1-MAVZU: TIL O'QITISH NAZARIYALARI

Mazkur mavzu doirasida talabaga til o'qitish va til o'qitish malakasining o'zaro munosabatidagi konsepsiyalar haqida ma'lumot beriladi. Ilmiy-tadqiqiy konsepsiya, nazariy-falsafiy konsepsiya, qadriyatlarga asoslangan konsepsiya, badiiy mahorat konsepsiyasi ichiga kiradigan yondashuvlar va ular asosida ishlab chiqilgan metodlar bilan tanishtiriladi.

Til ta'limi nazariyasi haqida so'z yuritish uchun ilmiy adabiyotlarni izlar ekanmiz, bugungi kunda bu mavzuga u qadar ko'p e'tibor berilmayotganiga guvoh bo'lamiz. Buning sababi bir tomondan til ta'limi ham umumiy ta'lim nazariyasining ichida deb qaralishi bo'lsa, ikkinchi tomondan til o'qitish jarayonidan ko'ra til o'zlashtirish jarayoniga nisbatan qiziqishning kuchliligidir.

Til o'qitish nazariyalari bo'yicha taniqli olim Jek Richardsning shu mavzuga bag'ishlangan maqolasi asosida so'z yuritamiz¹.

Til o'qitish jarayoniga turli jihatdan yondashish mumkin. Jarayonni to'liq qamrab olish uchun, uning o'ziga xos jihatlarini to'g'ri anglash va to'g'ri baholay olish uchun asos sifatida olinadigan nazariyalar bitta bo'lmasligi tabiiydir. Til ta'limi, boshqacha aytganda, serqirra jarayon bo'lib, ko'plab omillarni o'z ichiga oladi. Ularni mukammal tahlil qilish qilishga intilar ekanmiz, til o'qitish nazariyalari qanday konsepsiyalar asosida yaratilganini tushunishimiz kerak.

¹ Richards, J. (2002) *Theories of Teaching in Lanugage Teaching. // Methodology in Language Teaching*. Cambridge University Press. Pp. 19-26.

○ Mazkur jarayonning serqirraligi til o'qitish nazariyalarining ham turli konsepsiyalar asosiga qurilishini ta'minlagan. Til o'qitish nazariyalari quyidagi to'rt konsepsiyani o'z ichiga oladi: **ilmiy tadqiqiy konsepsiya, nazariya-falsafiy konsepsiya, qadriyatlarga asoslangan konsepsiya va badiiy-amaliy konsepsiya.**

○ **Ilmiy tadqiqiy konsepsiya** tadqiqotlardan kelib chiqadi va tajribaviy tahlil hamda empirik yondashuv bilan asoslanadi. Ilmiy tadqiqiy konsepsiya *o'rganishga oid tamoyillar tatbiqi, sinalgan modelga rioya qilish hamda yaxshi o'qituvchilar tajribasini qo'llash* kabi yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

○ *O'rganishga oid tamoyillar tatbiqi.* Ushbu yondashuv o'qitish uchun muhim deb hisoblangan xotira, uzatish, motivatsiya va boshqa omillarni tadqiq qilish asosida til ta'limi nazariyasi va tamoyillarini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

○ Ingliz tilini ikkinchi til yoki xorijiy til sifatida o'qitish tajribasida audiolingualizm, topshiriqlar asosida til o'qitish (task based language teaching) kabilar ilmiy tadqiqot natijalarining til o'qitish jarayonida qo'llanishiga misol bo'la oladi.

○ Audiolingualizm xulq-atvor psixologiyasi bilan bog'liq tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan. Psixologiya bo'yicha olib borilgan laboratoriya tadqiqotlariga ko'ra, agar ma'lumotni o'zlashtirishda uchta element aniq belgilansa, o'qishni muvaffaqiyatli boshqarish mumkin: xatti-harakatni chaqiradigan **stimul**; stimulga **javob**, stimulga berilgan javobning o'rinli (yoki noo'rin) deb belgilashga xizmat qiladigan **mustahkamlash**. Mazkur yondashuv audiolingval metodning shakllanishiga asos bo'lgan. Bunda bu tilni o'rganish lisoniy ko'nikmani shakllantirish sifatida qaralib, unda o'rganilayotgan til qoliplari yodlash uchun beriladi. Til dialog va mashqlar orqali o'rgatiladi.

○ O'qitish metodologiyasi bo'yicha tadqiqotlar xulosalarini amaliyotga joriy qilishga bo'lgan urinishlarning yana biri

“Vazifaga asoslangan til o‘qitish” deb nomlanadi. Bu metodning mohiyati o‘rganuvchiga o‘rganilayotgan til vositasida buyruq yoki topshiriq berib, uni bajarishni talab qilishdir. Masalan, *daftarni oling, kitobni oching, derazani yoping, o‘rningizdan turing* kabi. O‘rganuvchi bu topshiriqlarni bajarar ekan o‘z ongida qabul qilingan lisoniy ifoda bilan harakat va uning obyeksi o‘rtasida bog‘lanish yaratadi.

Til o‘rganish jarayoni muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun so‘z ma‘nolari o‘rtasida aloqa o‘rnatish talab etiladi. Ma‘nolarni o‘zaro bog‘lash bilan bog‘liq bo‘lgan topshiriqlar til o‘qitish o‘quv dasturlarining asosini tashkil qilishi kerak va bu topshiriqlar tilning kommunikativ funksiyalarni amaliyotda qo‘llashga imkon beradi.

Sinalgan modelga rioya qilish. Bunda yaxshi ta‘lim haqidagi tasavvur avvalgi tadqiqotlar hamda mantiqiy asoslash orqali shakllantiriladi. Ma‘lum bir usul dars davomida sinab ko‘rib, dars jarayoni va o‘quvchilarning natijasi qayd etib boriladi. Natija yaxshi bo‘lganda mazkur o‘qitish modelini amaliyotga tatbiq etish nazarda tutiladi.

Yaxshi o‘qituvchilar tajribasini qo‘llash. Mazkur yondashuv yaxshi o‘qituvchilarning faoliyatini o‘rganishni nazarda tutadi. “Yaxshi o‘qituvchi” – bu o‘quvchilari standartlashtirilgan yakuniy sinovlarda (bizning ta‘lim muhitida bu davlat imtihonlariga to‘g‘ri keladi) yaxshi natija ko‘rsatgan o‘qituvchilardir. Yaxshi o‘qituvchilar darsini tahlil qilish bo‘yicha tadqiqotlar quyidagi uch jihat muhimligini ko‘rsatgan:

1. O‘qituvchilarning o‘qitish maqsadini aniq belgilash qobiliyati va o‘quvchilar o‘quv topshiriqlarida aniqlikka erishishlari mumkinligiga ishonch.
2. Ta‘lim institutlari qo‘ygan talablarda hamda darslarni tashkil etishda o‘quvchilarga beriladigan vazifalarda ta‘lim maqsadining aniq aks etishi.

3. Talabalarning kutilayotgan natijaga jiddiy yondashuvi.

O'quv maqsadini aniq belgilash umumiy holatda yakuniy maqsad hamda har bir darsda ko'zda tutilgan maqsad demakdir. Bizda o'rta ta'limda ona tili ta'limi avvalboshdan bolani ona tilini yaxshi o'zlashtirishi, uni turli sharoitlarda to'g'ri qo'llay olishini, bir so'z bilan aytganda, bolaning til qobiliyatini rivojlantirishni maqsad qilib qo'yadi. Biroq so'nggi bir necha o'n yilda ona tilini o'qishdan asosiy maqsad oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirish bo'lib qoldi. Shuning uchun ham maktab o'quvchisi ona tili ta'limining yakuniy natijasini belgilab beruvchi davlat imtihonida yoziladigan inshoga emas, oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun topshiriladigan muqobil javobli test savollariga jiddiyroq tayyorlandi. Bu yerda ushbu ikkala hal qiluvchu imtihonning bir-biridan farqli ko'nikmalarni tekshirishi ham ahamiyatlidir, ya'ni davlat imtihonida bolaning yozma nutq qobiliyati tekshirilsa, oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida bolaning, asosan, grammatikaga oid bilimi tekshiriladi. Davlat imtihonining ahamiyati o'rta ta'limni yakunlaganlikka oid hujjat – shahodatnomaga ega bo'lishni hal qilsa, kirish imtihonlari oliy ta'lim olish huquqini beradi. O'rta ta'limni unga jalb etilganlarning deyarli hammasi yakunlash imkoniga ega bo'ladi. Oliy ta'lim olish imkoni esa cheklangan miqdordagi kishiga nasib etadi. Bu o'z navbatida oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarining maktabni bitirish imtihonlaridan muhimroq sanalashini ta'minlaydi.

Natijada, maktabdagi fan o'qituvchilariga nisbatan o'quv markazlaridagi kirish imtihonlariga tayyorlovchi o'qituvchilarning faoliyati jamiyatda yaxshiroq qadrlana boshlanadi, chunki maktab ta'limining maqsadi OTM-ga kirish imtihonidan muvaffaqiyatli o'tish emas, balki, yuqorida aytib o'tilganiday, bolaning til qobiliyatini ri-

vojlantirish. Rivojlangan til qobiliyati aynan nima ekanligi, u qanday talablarga javob berishi kerakligi haqida esa aniq belgilangan ma'lumot yo'q. To'g'ri, davlat ta'lim standarti, u asosidagi malaka talablari har bir fan doirasida ishlab chiqilgan, ammo jamiyatda qandaydir ishga kirishda til qobiliyatiga qo'yiladigan talab aniq belgilab qo'yilmagan. Maktabni bitirgan bolalar ona tili qobiliyatining rivojlanganlik darajasi mavhum qolsa-da, oliy ta'lim muassasalariga kiruvchilarning grammatik bilimiga qo'yilgan talab nisbatan aniq: maktab darsliklarida aytib o'tilgan har bir termin va tushunchani bilishi shart. Mana shu holat o'quv maqsadining aniq belgilanishi ta'limning samarali bo'lishiga olib kelishiga misol bo'la oladi, ya'ni kirish imtihoniga tayyorlash degan aniq maqsad borligi jamiyatda maktabdagi ona tili darsidan repetitor yoki o'quv markazidagi dars ustunroq ko'rilishiga olib keldi.

Yuqoridagi sanalgan uch muhim jihatdan biri o'quvchining ta'lim jarayoniga yondashuvidir. Yaxshi deb topilgan o'qituvchining faoliyati samarali kechishida o'quvchining ta'lim jarayonidan kutilayotgan natijaga jiddiy yondashuvi muhim omil sifatida tilga olinyapti. Qanchalik yaxshi o'qituvchi bo'lmasin, o'quvchi ta'lim jarayoniga jiddiy yondashmas ekan, bu jarayon samara bermaydi.

Nazariy-falsafiy konsepsiya. Til ta'limi asosidagi keyingi konsepsiya nazariy-falsafiy konsepsiyadir. Nazariyaga asoslangan yondashuvga ko'ra, metodlar nazariya va tafakkurga tayanib aniqlanadi, ularni qo'llab-quvvatlash uchun empirik tekshiruvdan ko'ra tizimli va ma'lum tamoyillarga asoslangan tafakkur qo'llaniladi. Boshqacha aytganda, metodlarni asoslashda qandaydir tajriba, sinovlar emas, balki mantiqiy dalillashdan foydalaniladi.

Masalan, til o'qitishdagi kommunikativ yondashuv 60-yillarda o'quv materiallari, o'quv dasturlari va o'qitish

usullarida yetakchilik qilgan grammatikaga asoslangan yondashuvga reaksiya sifatida paydo bo'lgan. Kommunikativ til ta'limi tarafdorlari grammatikaga asoslangan yondashuvlar asosida lingvistik va pedagogik nazariyaning nomuvofiqligini tanqid qilish orqali kommunikativ yondashuv grammatikaga asoslangan yondashuvdan ustunligini ko'rsatib berganlar.

“Kommunikativ” o'qitish usullari va materiallari qabul qilingan bo'lsa, o'qish yanada muvaffaqiyatli bo'lganligini isbotlovchi har qancha dalil keltirish mumkin, ammo mazkur yondashuvning samarali yondashuv ekanligini asoslash uchun nazariyaning o'zi yetarli deb hisoblandi.

Qadriyatlarga asoslangan konsepsiya. Til o'qitishda tayaniladigan navbatdagi konsepsiya qadriyatlarga asoslangan konsepsiya deb nomlanadi. Til o'qitish nazariyasi o'qituvchilar, o'rganuvchilar, sinfxonalar, jamiyatda ta'limning ahamiyati haqidagi qadriyatlar asosida yaratiladi.

Til o'qitishdagi turli qarash tarafdorlari o'zlarining takliflarini asoslashda asosan ta'lim yoki ijtimoiy ahamiyatga ega tizimlarga murojaat qiladilar. Til o'rgatishdagi qadriyatlarga asoslangan yondashuvni aks ettiruvchi “jamoaviy o'qitish”, “gumanistik yondashuvlar”, “o'quvchilarga yo'naltirilgan o'quv rejasi” kabilar mavjud. Jamoaviy o'qitish o'qituvchilarning jamoa bo'lib ishlashini nazarda tutadi. O'qituvchilar hamkasblari bilan birgalikda ishlashi har qanday bosqichda yaxshi natija berishi va bu yondashuv o'qituvchilar uchun ham, o'quvchilar uchun ham foydaliligi kuzatilgan.

Tilni o'qitishdagi gumanistik yondashuvlar deganda ta'lim vositasida insoniy qadriyatlarning shakllantirilishi, o'z-o'zini anglash va boshqalarni anglash, insonning his-tuyg'ulari va hissiyotlariga e'tiborliligini rivojlantirishga urg'u beriladi.

“O‘quvchilarga yo‘naltirilgan o‘quv rejasi” o‘quvchilar o‘z-o‘zini boshqara oladi va mas‘uliyatli qaror qabul qila oladi, degan ishonchga asoslangan. Til o‘qitish dasturlari va ularda ishlaydigan o‘qituvchilar o‘quvchilarga samarali ta‘lim strategiyalarini taqdim etishlari, o‘quvchilarga o‘zlariga mos usullarini aniqlashlarida yordam berishlari, o‘quv dasturlarini muhokama qilish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirishlari, o‘quvchilarni o‘z oldiga maqsad qo‘yishlari, vaqtni to‘g‘ri rejalashtirish va o‘zini o‘zi baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishda yordam berishlari kerak.

Badiiy-amaliy konsepsiya. Ta‘limni kontseptualashtirishning yana bir usuli – bu san‘at yoki ijodkorlik va o‘qituvchining individual mahorati va shaxsiga bog‘liq bo‘lgan narsa sifatida qarashdir. Yaxshi o‘qitish bu ta‘lim jarayoniga ixtiro sifatida qarash va uni shaxsiylashtirishdir. Yaxshi o‘qituvchi – bu vaziyatning ehtiyojlari va imkoniyatlarini baholaydigan, ushbu vaziyatga mos amaliyotlarni yaratadigan va ishlatadigan kishi².

O‘qitishga badiiy-amaliy yondashuv o‘qituvchini u ta‘lim jarayonida qo‘llaydigan shaxsiy xususiyatlarining o‘ziga xos majmui sifatida talqin qiladi.

O‘qitishning umumiy usullari yo‘q; aksincha, o‘qituvchilar o‘zlarini mutaxassis sifatida rivojlantirishga imkon beradigan o‘qitish usullarini ishlab chiqishlari kerak. Yaxshi o‘qituvchi vaziyatni tahlil qiladigan, muayyan sinf sharoitlariga qarab turli xil imkoniyatlar mavjudligini anglagan va ma‘lum usulning natijasi kutilgandek bo‘lmaganda alternativ usulni qo‘llay oladigan kishi sifatida ko‘riladi. Bu turli xil o‘qitish usullari va ulardan qanday foydalanish to‘g‘risida bilishning ahamiyatini rad etmaydi, ammo bitta o‘qitish uslubiga sodiqlik o‘qituvchining o‘qituvchi sifatida o‘zini to‘la namoyon qilishiga xalaqit berishi mumkinligini anglatadi.

² Zahorik, J.A. (1986). Acquiring teaching skills. Journal of Teacher Education (March-April), 21-25.

Mazkur konsepsiyalar ta'lim nazariyasiga asos bo'luvchi nazariyalardir. Ularning birortasi mana shu turdagi darsga asos bo'ladi deb aytish noto'g'ri. Bitta darsda ularning har birining ma'lum ulushi bor. Har qanday hodisa yoki organizmni o'rganish, chuqurroq tahlil qilish uchun uni tashkil etuvchi qismlarga bo'lib o'rganilishi hammamiz kuzatgan va amalda qo'llagan holat. Mazkur konsepsiyalar ham xuddi shunday: ta'lim jarayoni murakkab hodisa, u juda ko'p omillarga tayanadi; ularni yaxshiroq tushunish, tahlil qilish va rivojlantirish uchun bir-biridan farqli xususiyatlarni tushunishga intilish natijasidir.

Mavzu yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Richards, J. (2002) *Theories of Teaching in Lanugage Teaching*. In *Methodology in Language Teaching*. Cambridge University Press. Pp. 19-26.
2. Zahorik, J.A. (1986). *Acquiring teaching skills*. *Journal of Teacher Education* (March-April), 21-25.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Til o'qitishdagi nazariyalar qanday konsepsiyalarga asoslanadi?
2. O'rganishga oid tamoyillarni ta'lim jarayoniga tatbiq qilish qaysi konsepsiya tarkibiga kiradi?
3. Audiolingvalizm metodining shakllanishiga o'rganishga oid qaysi tamoyilning tatbiqi sabab bo'lgan?
4. Ilmiy-tadqiqiy konsepsiyaning mohiyati nimada?
5. Til o'qitishda kommunikativ yondashuv qaysi konsepsiyaga misol bo'la oladi? Nima uchun?
6. Ta'lim jarayonida qanday qadriyatlar ahamiyatli?
7. Qadriyatlarga asoslangan konsepsiya til o'qitishning qaysi jihatlarini belgilab beradi?
8. Badiiy-amaliy konsepsiyaning mohiyati nimada?

2-MAVZU: TIL O‘QITISH METODLARINING TANQIDIY TAHLILI

Shu vaqtgacha bizda chop etilgan ona tili o‘qitish metodikasi, o‘zbek tili o‘qitish metodikasi darsliklarida o‘zbek tili haqidagi nazariy materialning qaysilari o‘quvchiga berilishi kerak, degan masalani hal qilishga qaratilganday taassurot qoldiradi. Metodikaga bag‘ishlangan darsliklarning aksariyati o‘zbek tilining nazariy ma‘lumotlariga keng o‘rin ajratgan. Aytish mumkinki, metodik materiallar, metodika va umuman, o‘zbek tilini o‘qitishdagi yondashuv shu vaqtgacha grammatik yondashuv asosida amalga oshirilgan. Shuning uchun ham tavsiya qilinadigan metodlar bir-biridan tubdan farq qilmagan.

H.Duglas Broun metod tushunchasiga Edvard Antoni yaxshi ta‘rif berganini aytadi: metod bu til o‘qitishga tegishli yondashuv, metod va texnika iyerarxiyasidagi oraliq o‘rinni egallovchi tushuncha. Yondashuv nisbatan kengroq tushuncha bo‘lib, u til, uni o‘qish va o‘qitish tabiati bilan bog‘liq taxminlar tizimidir. Metod esa tanlangan yondashuv asosida tilni tizimli taqdim etish rejasidir. Texnika bu metodga va yondashuvga uyg‘un bo‘lgan dars mashg‘ulotlaridir³.

Jahon tajribasida til o‘qitishda foydalaniladigan metodlar tilga nisbatan, o‘rganuvchiga nisbatan va o‘rganish hodisasiga nisbatan yondashuviga ko‘ra bir-biridan farq qiladi⁴.

Tilga asoslangan metodlar asosan lingvistik shakllarga (grammatik strukturaga) e‘tibor qaratadi. Bu metodlar

³ Douglas Brown, H. (2002). English Language Teaching in the “Post-Method” Era: Toward Better Diagnosis, Treatment, and Assessment. In *Methodology in Language Teaching*. Cambridge University Press. P. 9.

⁴ Kumaravadivelu, B. Beyond Methods: Macrostrategies for Language Teaching. Yale University Press. 2003.

o'rganuvchi uchun oldindan tanlab olingan, oldindan tartiblangan lisoniy strukturalarni mashq qilish imkoniyatini yaratadi. Bu mashqlar shaklga asoslangan bo'ladi. Mazkur metodlarning yondashuvi lingvistik shakllarni o'zlashtirish o'rganuvchini tilni qo'llashda manba bilan ta'minlaydi va til o'rganuvchi ehtiyoj tug'ilganda undan foydalanishi mumkin, degan mantiqni ilgari suradi. Shuningdek, bu yondashuvga ko'ra til o'rganish maqsadli faoliyat bo'lib, til o'rganuvchining ongli urinishlaridan/harakatidan iborat bo'ladi.

Tilga asoslangan metodlar til o'rganishni chiziqli jaryon deb qaraydi va tilni o'rgatishda grammatik strukturalar va lug'at soddadan murakkabga qarab borish tarzida tanlab olinadi. O'qituvchi o'quvchilarga bir vaqtda faqat bittasini tushuntirib, o'quvchi uni o'zlashtirgach, keyingisiga o'tishi nazarda tutiladi. Tilga asoslangan metodlar lingvistik sistemani to'liq tushuntirish, tahlil qilishni to'g'ri deb biladi. Til sistemasi tushuntirib bo'lmaydigan darajada murakkab emas. Biz o'z tushuntirish qobiliyatimiz bilan uni o'rganuvchiga tushuntirib bersak, u ma'lum til sistemasini to'liq o'zlashtira oladi, deb qaraydi.

Bizda til o'qitish tajribasi asosan shu tipdagi metodlar asosida olib borilgan. O'zbek tili ham, rus tili ham tilni ma'lum struktura sifatida tushuntirish mumkin degan qarash asosida o'rgatilgan. Shuning uchun ham darsliklarimiz tilning eng bizga sezilib turuvchi qatlami – tovush qatlamini tushuntirishdan, ya'ni fonetikadan boshlangan. Nafaqat o'zbek va rus tili darsliklari, balki SSSR vaqtida chiqqan ingliz tili va boshqa chet tillarini o'rgatuvchi darsliklar ham avval fonetikadan boshlangan. Dastlab tilning tovush tarkibi o'rgatilgan, bo'g'inlarning o'qilishi mashq qildirilgan va hkz. Ona tilida esa bu sof fonetik masalalar – tovushlar tasnifi, urg'uning ilmiy ta'rifi, bo'g'inning ilmiy ta'rifi kabi masalalar bo'lgan. Mazkur yondashuv o'rganish ho-

disasini ham chiziqli jarayon sifatida talqin qilgan, ya'ni bola avval tilning tovush tomonini yaxshilab o'zlashtiradi, keyin so'zlarga o'tadi, so'zlarning turkumlari, ularning o'zaro farqlovchi belgilar nimadan iboratligini tushunadi, shundan keyingina so'z birikmasi, gap qurilishi nimaligini o'zlashtira oladi. Tilga nisbatan ilmiy yondashuv shu kabi xarakterga ega bo'lishi mumkin, ya'ni tadqiqotchi til hodisasini tushinishi va tushuntirishi uchun uni turli qatlamlarga bo'lib, ularning o'ziga xos jihatlarini alohida-alohida o'rganishi muhim. Biroq tilni qo'llash uchun, tildan amaliy maqsadda foydalanish uchun o'rganadigan odam tilni avvalo o'zlashtirishi lozim. Til o'zlashtirish esa, chiziqli jarayon emas. Bola tilni o'zlashtirar ekan, hech qachon avval tovushlarni to'liq o'zlashtirib bo'lgach, so'zga, so'zlarni o'zlashtirib bo'lgandan keyingina gapga o'tmaydi. Bola tilning turli sathlaridagi zaruriy elementlarni o'zlashtirib boraveradi. Shu asosda ayta olamizki, tilni o'rganishga bunday yondashish tilning tabiiy o'zlashtirilish jarayonini aks ettirmaydi, shuning uchun samara berishi qiyin.

O'rganuvchiga asoslangan metodlar asosan tilning qo'llanishi va o'rganuvchining ehtiyojlariga asoslanadi. Ular oldindan tanlab olingan va tartiblangan grammatik strukturalar va kommunikativ vazifalarni (kechirim so'rash, bi-ror narsani so'rash kabi) mazmunga asoslangan mashqlar orqali o'rgatishga harakat qiladi. Mazkur metodning asosida o'rganuvchi shakl va kommunikativ vazifani oldindan o'zlashtirsa, u darsdan tashqarida ham ularni o'z muloqot ehtiyojini qondirish uchun qo'llay oladi degan qarash yotadi. Bu yondashuv til o'rganishni maqsadli faoliyat sifatida qaraydi.

O'rganuvchiga asoslangan metodlar til o'rganuvchilarni grammatik jihatdan to'g'ri va kommunikativ jihatdan erkin so'zlay oladigan darajaga olib chiqishni maqsad qilib qo'ya-

di. Ular o'rganuvchining real hayotdagi tilni qo'llashga bo'lgan ehtiyoji (ijtimoiy muloqot, akademik ta'lim)ni hisobga oladi va zaruriy lingvistik strukturalarni kommunikativ kontekstda beradi. Bu metod ham to'plangan bilim tushunchasiga asoslanadi, faqat tilga asoslangan metodlardan farqli ravishda to'plangan bilim lingvistik strukturalardan tashqari tushuncha va kommunikativ vazifalarni o'z ichiga oladi. Bu yondashuv ham tilni o'rganuvchiga tushuntirish mumkin deb qaraydi, har bir funksional kategoriya bir yoki bir nechta lingvistik shaklga ega va ular ketma-ket tanishtirilishi va sistematik tarzda tushuntirilishi mumkin deb hisoblaydi.

Ona tili yoki o'zbek tilini o'qitish tajribasida bu kabi yondashuv endi qo'llana boshlandi, deyish mumkin. Xususan, davlat xizmatchilarining til malakasini oshirish maqsadida qisqa muddatli o'quv kurslari uchun dastur ishlab chiqildi. Unda o'zbek tilini qo'llash jarayonida odatda yo'l qo'yiladigan xatolarga asoslanib o'sha xatoning nima uchun xato hisoblanishini izohlash va to'g'ri variantni turli mashqlar bilan mustahkamlash orqali davlat xizmatchilarining til malakasi oshirilishi ko'zda tutilgan⁵.

O'rganish jarayoniga asoslangan metodlar o'rganuvchiga kommunikativ mashg'ulotlar yoki muammoni hal qilish vazifalari orqali til o'rganishga imkoniyat yarata-di. Mazmunga asoslanish oxir-oqibat til strukturasini va kommunikativ malakani o'zlashtirishga olib boradi, deb qaraladi. Bu yondashuv til o'rganish jarayonini tasodifiy, yana ham aniqrog'i, boshqa maqsadga yetish yo'lidagi vosita sifatida qaraydi. Mazkur qarashga ko'ra til o'rganish chiziqli-tartibli jarayon emas, shuning uchun ham u oldindan tanlangan va tartiblangan materialni talab etmaydi. Shuning uchun dars jarayonida o'rganuvchi jalb

⁵ Azimova I., Mavlonova K., Kuldasheva S., Tursunov Sh. O'zbek adabiy tili: amaliy qo'llanma. Toshkent, 2019. 158 b.

etilishi lozim bo'lgan turli vaziyatlarni yaratish lozim deb hisoblanadi. Mazkur metod tarafdorlari til o'rganuvchi butun diqqat-e'tiborini tushunishga, o'sha tilda nimadir deyishga va harakatga qaratsagina tilni mukammal egallay oladi, deb ta'kidlaydilar.

Shuningdek, ular til shu qadar murakkab tizimki, uni tahlil qilish, tushuntirish va ma'lum tartibda oldindan tanlab o'rganuvchiga tanishtirib borish mumkin emas, deb qaraydi.


Bu yondashuv asosida tashkil etilgan darsni quyidagicha tasavvur qilish mumkin. O'qituvchi darsda biror maishiy xizmat sohasidagi kishining rolini o'ynaydi. Bu ofitsiant bo'lishi mumkin. O'rganuvchilar lug'at titkilab, kitoblardan qarab, buyurtma qilishlari kerak. Yoki o'qituvchi tili o'rganilayotgan millatga tegishli biror urf-odat haqida unda qo'llanadigan predmetlarni bevosita ko'rsatib, uning nomlarini aytib, o'sha odatning nomi, unda odatda ishlatiladigan so'zlar, aytiladigan qo'shiqlarni bolalarga tanishtiradi.

Mazkur yondashuv til o'rganish jarayonini tilni tabiiy o'zlashtirish jarayoniga maksimal darajada yaqinlashtirishga intiladi. Til o'rganish bilan tilni o'zlashtirish bitta hodisa emasligini e'tiborga olish zarur. Til o'rganish ongli boshqaralidigan jarayon. Til o'zlashtirish esa ma'lum til birliklarini avtomatik qo'llay olish demakdir. Ma'lum til birligini o'rgatish uning o'zlashtirilishini kafolatlamaydi.

Bu xulosa til o'zlashtirishga oid ilmiy tadqiqotlarning natijalariga tayangan holda yuzaga kelgan. Xususan, tabiiy tartib gipotezasiga ko'ra, tilga oid grammatik tushunchalar qanday ketma ketlikda beilishidan qat'i nazar ularning o'zlashtirilishida tabiiy tartib amal qiladi. Masalan, ingliz tilini ona tili o'zlashtiruvchi bolalar va chet tili sifatida o'rganuvchi kattalarda quyidagi tartib kuzatilgan: birinchi bo'lib fe'lning hozirgi zamon davom shakli, otning ko'plik shakli va bog'lama o'zlashtiriladi. Keyin yordamchi fe'l (*he is going*), a va the

artikllari. Undan keyin noto'g'ri fe'llarning o'tgan zamon shakli. Keyin esa to'g'ri fe'llarning o'tgan zamon shakli, hozirgi zamondagi uchinchi shaxs birlik -s, qaratqich kelishigi 's. Bu tartib til o'zlashtiruvchilarning 100 foizida kuzatilmasa-da, 70 foiz atrofida amal qiladi.

1-rasm. Tabiiy tartib gipotezasining ingliz tilida ko'rinishi⁶.



⁶ Sxema Stephan Krashenning "Principles and Practice in Second Lanugage Acquisition" kitobidan olindi: Krashen S. (1982). Principles and Practice in Second Lanugage Acquisition. Pergamon Press Inc. P.12.

Metod tushunchasining cheklanganligi

O'qituvchilar har doim metodik ko'rsatmalarda yoki darsliklarda belgilangan metodlarni qo'llashga qiyinchilikka duch keladilar. Nima uchun? Metod uzoq vaqt til o'qitish sohasida diqqat markazida turganligi, imkon qadar yaxshiroq metodni yaratishga urinishlar ta'lim jarayoni samarasini oshirmaganini B. Kumaravadivelu, H.H. Stern kabi olimlar ta'kidlagan.

Duglas Broun nima uchun metodning kamchiliklari haqida quyidagilarni aytadi:

1. Metodlar oldindan shakllantiriladi va ta'lim konteksti hali belgilanmay turib, u haqida juda ko'p taxminlar qilishga asoslanadi. Amaliy vaziyatga nisbatan ular haddan tashqari umumiydir.

2. Metodlar boshida bir-biridan farqli bo'lsa-da, keyinchalik ularning chegarasini aniqlab bo'lmay qoladi. Har qanday til o'rganuvchi guruh borib-borib o'rganuvchini markazga qo'ygan da'sturga aylanib ketadi.

3. Metodlarning qaysi biri eng yaxshi ekanligini hisob-kitob qilib chiqarish mumkin deb taxmin qilingan edi. Hozirda esa shu narsa ma'lumki, til ta'limi kabi san'atga yaqin va inuitiv jarayonni empirik baholab bo'lmaydi.

4. Metodlar, odatda, ma'lum ma'noda siyosiydashgan bo'ladi: o'z tarafdorlari tomonidan belgilab beriladi. Ingliz tilining o'qitilishining ilmiy o'rganilishi asosida shu narsa ma'lum bo'ldiki, metodlar ta'siri kuchliroq markaz tomonidan belgilanadi.⁷

Bu masalani B. Kumaravadivelu quyidagicha izohlaydi⁸:

Birinchidan, metodlar ideallashtirilgan kontekstda qo'llanadigan ideallashtirilgan tushunchalardan iborat. Til o'rganish jarayonida til o'rgatish va o'rganish ehtiyojlari,

⁷ O'sha manba. B.10.

⁸ Kumaravadivelu, B. *Beyond Methods: Macrostrategies for Language Teaching*. Yale University Press. 2003.

istaklar, vaziyatlar shu qadar ko'pki, uning hammasini bir metod yoki tavsiya yozilganda oldindan ko'rib bilib, vaziyatga mos yechim berish imkonsiz. Shuning uchun metodlar "hamma uchun bir razmer" mantig'i asosida ishlab chiqilgan. Hech bir o'qitish-o'rganish kontekstiga asoslanmagandan keyin metodlar bir nazariy oqimdan ikkinchisiga sakrayvergan: ma'lum vaqt davomida grammatik qoidalarni o'qitish eng maqbul usul deb qaraldi, keyin ulardan voz kechilib, kommunikativ vazifalarga o'tildi. Boshqa bir vaqtda xatolarni to'g'rilash muhim deb qaraldi, keyin undan ham voz kechildi. Bu kabi evrilishlar o'rganish jarayonining ma'lum jihatiga e'tiborni kuchaytirib, qolganlarining e'tibordan chetda qolish holatini yuzaga keltirdi.

Metod tushunchasining yana bir kamchiligi shundaki, u til o'qitishday murakkab jarayonning hamma omillarini hisobga olmaydi. U faqat sinfxonasidagi tushuntirish strategiyalari haqida so'z yuritir ekan, unga bevosita ta'sir qiluvchi o'qituvchining aqliy darajasi, o'rganuvchining qabul qilish darajasi, ijtimoiy ehtiyoj, madaniy kontekst, siyosiy zarurat, iqtisodiy majburiyat kabi omillarga e'tibor bermaydi.

Mavzu yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Douglas Brown, H. (2002). English Language Teaching in the "Post-Method" Era: Toward Better Diagnosis, Treatment, and Assessment. In *Methodology in Language Teaching*. Cambridge University Press. P. 9.
2. Krashen S. (1982). *Principles and Practice in Second Lanugage Acquisition*. Pergamon Press Inc.
3. Kumaravadivelu, B. (2003) *Understanding postmethod pedagogy // Beyond Methods: Macrostrategies for Language Teaching*. Yale University Press. Pp.23-32.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Metodlar qanday xususiyatlariga ko'ra tasnif qilinadi?
2. Tilga asoslangan metodlar til haqidai qanday qarashga asoslanadi?
3. Tilga asoslangan metodlarning afzalliklari va kamchiliklari nimalardan iborat?
4. O'rganuvchiga asoslangan metodlar til haqidai qanday qarashga asoslanadi?
5. O'rganuvchiga asoslangan metodlarning afzalliklari va kamchiliklari nimalardan iborat?
6. Jarayonga asoslangan metodlar til haqidai qanday qarashga asoslanadi?
7. Jarayonga asoslangan metodlarning afzalliklari va kamchiliklari nimalardan iborat?
8. Metod tushunchasining cheklanganligi nimalarda ko'rinadi?
9. O'z til o'rganish tajribangizdan kelib chiqib har bir tip metodlarning siz uchun samarasi qanday bo'lganini tahlil qiling.

3-MAVZU: "POSTMETOD" TA'LIM TUSHUNCHASI VA UNING TAMOYILLARI

90-yillarda g'arbda "metod" tushunchasiga nisbatan tanqidiy yondashuv paydo bo'ldi. Metodlar o'zining o'ta umumiyligi va til o'qitish jarayonining amaliy masalalarini, xususan, har bir ta'lim konteksti bir-biridan farq qilishi, bitta metod hamma uchun bir xil samara bermasligi va darsning jonli jarayon ekanligini hisobga olmasligi mazkur tanqidning asosini tashkil etdi. Shu asosda til ta'limi sohasi mutaxassislari "postmetod ta'lim" tushunchasini ilmiy taomilga kiritishdi. "Postmetod ta'lim" tarafdorlari darsni jonli kechadigan jarayon deb qarab, har bir o'qituvchining

individualligini diqqat markaziga qo'yadilar. "Postmetod ta'lim" asoschilaridan biri B.Kumaravadiveluning fikriga ko'ra, postmetod sharoiti uchta o'zaro bog'liq xususiyat bilan belgilanadi⁹.

Birinchiidan, u alternativ metod emas, balki metodga alternativ qidiradi. Agar metodikaning nazariyotchilari nazariya asosida metodika yaratsalar (yuqoridan pastga tamoyiliga asosan), postmetod vaziyati amaliyotchilardan o'z tajribasi asosida nazariya yaratishni (pastdan yuqoriga tamoyiliga asosan) talab etadi.

Ikkinchiidan, postmetod vaziyatida o'qituvchi avtonomiyasi asosiy masaladir. O'qituvchi faqatgina qanday o'qitishni biladigan shaxs sifatida emas, balki akademik tizim, belgilangan o'quv dasturi va darslik doirasida avtonom tarzda faoliyat yurita oladigan shaxs sifatida qaraladi. O'qituvchi o'z tajribasini tanqidiy tahlil qila oladigan, o'z-o'zini kuzatish, tahlil qilish va shu asosda o'qitish jarayoniga o'zgartirishlar kiritishi mumkin. Uchinchiidan, qat'iy pragmatizm. Nazariya va amaliyot o'rtasidagi, g'oya va ularning amalga oshishi faqatgina amalga qo'llanganda, ya'ni o'qitish jarayonidagina voqelanishi mumkin. Qat'iy pragmatizm shu taxlit o'qituvchining o'z-o'zini kuzatish, tahlil qilish va baholash asosida darsning shakllanishi va qayta shakllantirilishiga asosiy e'tibor qaratadi. O'qituvchilar pragmatizmga "maqbullik hissi" orqali rioya qilishlari mumkin. Maqbullik hissi – o'qituvchilarning o'z o'qitishlarini subyektiv tushunishlaridir. Ularning subyektiv tushunishi ularning o'rganuvchi va o'rgatuvchi sifatidagi tajribasi, oliy ta'limda olgan bilimi va kasbdoshlari bilan maslahatlashishdan shakllanadi. Metod bo'lmagach, maqbullik hissini yaxshi yo yomon deb baholash noo'rin, u faol, jonli,

⁹ Kumaravadivelu, B. Beyond Methods: Macrostrategies for Language Teaching. Yale University Press. 2003. Pp.32-42.

o'qituvchi va o'quvchining darsda bevosita ishtirokchilik hissini ta'minlaydigan darajada amaliyligi yuqorimi – shu jihatlari muhimdir.

Postmetod ta'lim metodga asoslangan ta'lim qo'yan chegaralardan chiqish imkonini beradi. B. Kumaravadivelu posmetod ta'limni uch o'lchamli tizim bo'lib, **o'ziga xoslik, amaliylik va imkonlilik** kabi pedagogik tamoyillardan tashkil topadi, deb aytadi.

O'ziga xoslik tamoyili. O'ziga xoslik parametri har qanday til ta'limidan o'ziga xos ijtimoiy-madaniy muhitdagi o'ziga xos institutsional kontekst ichida o'ziga xos maqsadlar yo'lida til o'rganayotgan o'rganuvchilarning o'ziga xos guruhini o'qitayotgan o'qituvchilarning o'ziga xos guruhi uchun mos va moslashuvchan bo'lishini talab etadi. O'ziga xoslik parametri shu bilan umumiy dars amaliyoti uchun umumiy nazariy tamoyillarga qarama-qarshi turuvchi tushunchadir. Bu ta'lim amalga oshayotgan muhitga moslashish degani. Amaliyotchi o'qituvchilarni individual yoki guruh holida ularning darslarini kuzatish, erishilgan natijalarni baholash, muammolarni aniqlash, ularga yechim topish, topilgan yechimlarni amalda qo'llab qaysisi ishlaydi, qaysinisi yo'q – aniqlash bilan amalga oshiriladi.

Amaliylik tamoyili o'qituvchi tomonidan yaratilgan amaliyot nazariyasini o'z ichiga oladi. Bu tamoyilga ko'ra amaliyotdan kelib chiqib yaratilmagan nazariya foyda bermaydi. Uning mantiqiy asosi shundaki, amaliyotchi o'qituvchidan boshqa odam jarayonni to'liq o'rganib chiqa olmaydi, demakki, foydali nazariya ham yarata olmaydi. Mazkur tamoyil o'qituvchidan muammolarni tushunish va aniqlash, ma'lumotni tahlil qilish va baholash, alternativ yondashuvni nazarda tutish hamda uni baholay bilish, shundan so'nggina eng yaxshi alternativni tanlashni talab etadi. Oxiri tanlangan alternativ ham keyingi tanqidiy tah-

lilga yuz tutadi. Shu ma'noda amaliylik nazariyasi doimiy harakatni talab etadi. O'qituvchining "yaxshi o'qitish" hissi vaqt bilan o'sib boradi.

Imkonlilik tamoyili o'qituvchi va o'rganuvchilarning ta'lim jarayonining subyektivi sifatidagi rolini tan olishga undaydi, ya'ni ularning ijtimoiy sinfi, irqi, jinsi, millati va ularning ta'lim jarayoniga ta'siri bilan hisoblash zarur. Imkonlilik tamoyili ijtimoiy-siyosiy vaziyat bilan birgalikda shaxsiy o'zlik tushunchasiga ham e'tibor qaratadi.

Til ijtimoiy guruhlar shakllanadigan va bu guruhlarining ijtimoiy va siyosiy oqibatlari belgilanadigan va o'zaro raqobatlashadigan makondir. U, shuningdek, bizning o'zlik tushunchamiz va subyektiv qarashlarimiz shakllanadigan makon hamdir.

Makrostrategik asos makrostrategiyalar va mikrostrategiyalardan tashkil topadi. Makrostrategiyalar til o'qitishining tarixiy, nazariy, amaliy va tajribaviy xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanadigan tamoyillardir. Makrostrategiya umumiy reja bo'lib, o'qituvchi uning doirasida o'z vaziyatga bog'liq, ehtiyojdan kelib chiqqan mikrostrategiyalarini yoki dars texnikasini ishlab chiqishi mumkin bo'ladi.

Makrostrategiyalar nazariy jihatdan neytral, metod jihatdan ham neytral hisoblanadi. Bu biror maxsus nazariya yo metodga asoslanmaydi, degani.

Makrostrategiyalar:

O'rganish imkoniyatlarini kengaytirish: bunda o'qituvchi o'qitish aktlarining boshqaruvchisi va o'rganish aktlarini me'yorlashtiruvchi sifatida yuzaga chiqadi. Ta'lim jarayoni o'rganish imkoniyatini yaratuvchi va rivojlantiruvchi jarayon sifatida qaraladi.

Qabul qilishdagi nomuvofiqliklarni kamaytirish: bu makrostrategiya o'rganuvchi, o'qituvchi va o'qituvchining o'qituvchisi o'rtasidagi niyat va talqin o'rtasida perseptual nomuvofiqliklar ro'y berish ehtimolini nazarda tutadi.

Kelishilgan o'zaro munosabat: bu makrostrategiya o'rganuvchi bilan o'rganuvchi o'rtasida, o'rganuvchi bilan o'qituvchi o'rtasidagi maqsadli o'zaro munosabatni anglatadi, unga ko'ra o'rganuvchi faqat javob beribgina qolmay, mavzu va suhbatni o'zi boshlashi mumkinligini ta'kidlaydi.

O'rganuvchi avtonomiyasini qo'llab-quvvatlash: bu makrostrategiya o'rganuvchilarga o'rganishlarida o'z-o'zini yo'naltirish va nazorat qilish uchun zaruriy vositalar va qurollar bilan yordam berishdir.

Lisoniy malakani o'stirish: bu makrostrategiya tilning rasmiy va funksional jihatlariga e'tibor qaratish orqali til o'rganishni qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi.

Intuitiv evristikani faollashtirish: o'rganuvchiga katta hajmdagi matniy ma'luomt berib, matn asosida yotgan grammatik qoidalar haqida xulosa chiqarishi va anglab yetishi, shu orqali o'zi ham qo'llashini nazarda tutadi.

Lingvistik ma'lumotni kontekstda berish: bu makrostrategiya tilning qo'llanishi lingvistik, ekstralingvistik, vaziyat va vaziyat atrofidagi kontekst orqali qanday shakllanishiga e'tibor qaratadi.

Lisoniy malakalarni integratsiyalash (uyg'unlashtirish): eshitish, gapirish, o'qish va yozish kabi malakalarni yaxlit tarzda uyg'unlashtirishni nazarda tutadi.

Ijtimoiy muvofiqligiga ishonch hosil qilish: bu makrostrategiya o'qituvchining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ta'limiy muhitga nisbatan hushyor bo'lishini talab etadi.

Mavzu yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Douglas Brown, H. (2002). English Language Teaching in the "Post-Method" Era: Toward Better Diagnosis, Treatment, and Assessment. In Methodology in Language Teaching. Cambridge University Press. P. 9-19

2. Kumaravadivelu, B. Understanding postmethod pedagogy // *Beyond Methods: Macrostrategies for Language Teaching*. Yale University Press. 2003. Pp.32-43.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Postmetod ta'lim tushunchasining asosida nima yotadi?
2. Uning qanday tamoyillari bor?
3. O'ziga xoslik tamoyilining mohiyati nimada?
4. Amaliylik tamoyilining mohiyati nimada?
5. Imkonlilik tamoyilining mohiyati nimada?
6. Makrostrategik asos nima?
7. Har bir makrostrategiyaning amalda voqelanishiga o'z tajribangizdan misol keltiring.

4-MAVZU: O'RGANISH IMKONIYATLARI VA STRATEGIYALARI

O'qitish bu avtomatik ravishda o'rganishga olib boradigan amal emas, chunki o'rganish bu o'rganuvchi tomonidagina amalga oshiriladigan va nazorat qilinadigan jarayon. Shunday ekan, o'qituvchi o'rganuvchi biror narsani o'rganishi uchun shart-sharoit yaratib berishga harakat qiladi. Jarayonning muvaffaqiyati esa o'rganuvchining bu shart-sharoitdan foydalanishni xohlash-xohlamasligi bilan bog'liq. Dick Allwright dars jarayonini "o'rganish imkoniyatlari yaratib beriladigan interfaol jarayon" deb ta'riflagan¹⁰.

O'quv rejaları va dasturlari yo'nalishni belgilash uchun zarur, ammo har bir o'qituvchi yaxshi biladiki, u o'z dasturiga asir bo'lmasligi kerak. Dasturlar dars boshlanishidan ancha avval tayyorlab qo'yilarkan, dars davomida o'qituvchi

¹⁰ Allwright, R. L. (1988). *Observation in the Language Classroom*. London: Longman

jarayon qay yo'sinda kechayotganini to'g'ri baholab, zaruriy o'zgartirishlarni kiritishi kerak bo'ladi. Nima o'qitilayotgani bilan o'rganish uchun nimalar mavjudligi o'rtasida farq bor.

Darsliklar uchun tanlangan matnlar o'rganish jarayoni-ning mahsuli emas, ular o'qitish uchun tanlangan grammatik strukturalar va yangi so'zlarni qamrab olganligiga qarab tanlanadi. Shuning uchun ham ular hammaga birday mos keladi, samarali bo'ladi deb bo'lmaydi. Ular ma'lum guruhning xususiy ehtiyojlariga javob bermaslik ehtimoli yuqori. Shuning uchun darsliklar o'qitish materiali sifatida emas, manbasi sifatida qaralishi kerak, unga asoslangan holda interfaol jarayon tashkillashtirilishi kerak.

O'rganish imkoniyatlarini oshirishda ikki muhim masala bu o'rganuvchilarning dars jarayoniga kirishganligi, o'zini o'sha darsning ajralmas qismi sifatida ko'rishi va o'qituvchining savollaridir.

O'rganuvchilar darsda gapirganda ular nafaqat til malakalarini, balki o'zining o'rganish imkoniyatlarini namoyon qiladi. Shuning o'qituvchi o'rganuvchilarning gapiga o'ta diqqat bilan yondashishi zarur. Agar o'rganuvchi mavzudan yiroq savol bersa ham u o'zi uchun o'rganish imkoniyatlarini yaratayotgan bo'lishi mumkin.

O'qituvchi beradigan savollar.

Hugh Mehan o'qituvchi berishi mumkin bo'lgan savollari quyidagi tiplarga bo'lgan¹¹:

- tanlash savollari. Ular o'rganuvchidan o'qituvchining fikriga qo'shilish yo qo'shilmaslik yoki berilgan ro'yxatdan kerakli javobni tanlash kerak bo'ladi;

- Ma'lumot berishni talab qiladigan savollar. O'rganuvchi faktik ma'lumot bilan javob berishi kerak bo'lgan savollar: ism, adres va hkz;

¹¹ Mehan, H. (1979). *Learning Lessons: Social Organization in the Classroom*. Cambridge: Cambridge University Press.

- Fikrlashga undaydigan savollar: o'rganuvchilarning biror masala yuzasidan qarashi va talqini so'raladi;

- Xulosa chiqarish/asoslashga undaydigan savollar: o'rganuvchilarni o'z javoblarini asoslashga, bergan javobiga mos jarayon yo qoidani aytishga undaydi.

Oxirgi ikki tipdagi savollari ko'proq ikki tomonning ham qatnashishini talab qiladi, shuning uchun ham o'rganish imkoniyatlarini yaratishda samaraliroq deb qaraladi.

O'rganish imkoniyatlarini yaratishda qo'llanadigan mikrostrategiyalar:

1. Kampus aholisi bilan yaqindan aloqa o'rnatish.
2. Mahalliy aholi bilan yaqindan aloqa o'rnatish.
3. Global aholi bilan yaqindan aloqa o'rnatish.

Mavzu yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Allwright, R. L. (1988). *Observation in the Language Classroom*. London: Longman
2. Mehan, H. (1979). *Learning Lessons: Social Organization in the Classroom*. Cambridge: Cambridge University Press.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. O'qitish bilan o'rganishning natijasi nima uchun teng bo'lmaydi?

2. O'rganish imkoniyatlari deganda siz nimani tushundingiz?

3. O'rganish imkoniyatlarini oshirishda nimalar muhim? Nima uchun?

4. Kampus aholisi bilan yaqindan aloqa o'rnatish o'rganish imkoniyatlarini aynan qaysi tomonlarga kengaytiradi?

5. Mahalliy aholi bilan yaqindan aloqa o'rnatish o'rganish imkoniyatlarini aynan qaysi tomonlarga kengaytiradi?

6. Global aholi bilan yaqindan aloqa o'rnatish o'rganish imkoniyatlarini aynan qaysi tomonlarga kengaytiradi?

5-MAVZU: TA'LIM AKTLARI MONITORINGI

Darslar g'oya, reja, metod va materiallar amalda qo'llanadigan jarayondir. Shuningdek, o'qitishdagi yangi yondashuvlar sinab ko'riladigan maydon ham. Dars qanday o'tishi butun ta'lim jarayonini baholash uchun asosdir.

Dars kuzatishning bir necha modellari mavjud. Ularni ikki tipga ajratish mumkin: natijaga asoslanadigan model-lar va jarayonga asoslanadigan modellar.

Natijaga asoslanadigan modellar

Bu modellar o'qituvchining xulq-atvori ta'rifi o'qituv-chining darsdagi xulq-atvorini bilish uchun asos bo'la-di degan qarashga asoslanadi. Bu modellar o'qituvchi va o'rganuvchilarning verbal faoliyatini tasvirlash uchun oldindan tanlangan va belgilangan kategoriyalardan foy-dalanadi. Kategoriyalar o'qituvchi xulqini baholash uchun "o'qituvchi so'radi", "o'qituvchi yo'nalish berdi" kabi va o'rganuvchilar xulqini baholash uchun "o'rganuvchi javob berdi", "o'rganuvchi tashabbus ko'rsatdi" kabilarni o'z ichiga oladi. Bu kategoriyalar kvanitativ va statistik hi-sob-kitoblar orqali verbal xulqqa raqamli qiymat berishga mo'ljallangan. Masalan, o'qituvchilar necha marta javob berganligini qayd etish kabi.

Mazkur modellar darsdagi faoliyatni qisman tushunish uchun qo'llanadi, xususan, o'qituvchi va o'qituvchi nutqini tahlil qilish uchun. Ularda quyidagi kamchiliklar kuzatiladi:

- ular faqat verbal xulqqa asoslanadi, u xulqni shakllan-tirgan omillarni hisobga olmaydi;

- ular kvanitativ o'lchovlarga asoslangan bo'lib, raqam-lar bilan hisoblab bo'lmaydigan muloqot tarafini e'tibordan chetda qoldiladi;

-ular bir tomonlama xarakterga ega bo'lib, asosan, nazoratchidan o'qituvchiga qarab yo'naltirilgan;

- ular bir o'lchovli, ya'ni kuzatish asosi faqat bitta rakkursdan, ya'ni kuzatuvchi tomonidandir. Bu modellar dars jarayonini to'liq qamrab ola olmaydi.

Jarayonga asoslangan modellar

Bu kabi modellar dars jarayonidagi mashg'ulotlarni talqin qilish dars jarayonini va amaliyotini tushunishga yo'l ochadi degan qarashga asoslanadi. Mazkur maqsad bilan ular dars jarayonida berilayotgan material, darsdagi o'zaro muloqot, mashg'ulotlarning kognitiv va tashkiliy tomonlariga e'tibor qaratadi. Ular darsning har bir ishtirokchisiga alohida shaxs sifatida qarab, ularning faoliyatini tahlil qilishga harakat qiladi. Ular dars bo'yicha olingan ma'lumotni kvantitativ va kvalitatif baholashga harakat qiladi. Bu modellar ham darsni kuzatib, undan olingan ma'lumotlarga raqam bilan qiymat berishga harakat qiladi, ya'ni ma'lumotlar oldindan belgilangan kategoriyalar bo'yicha statistik tahlil qilinadi. Natijaga asoslangan modellardan farqi jarayonga asoslangan modellar dars jarayonini tasvirlash bilan cheklanmay, uni talqin qilishga urinadi; talqinning to'laqonli bo'lishi uchun faqat kuzatuvchi bo'lib qolmay, boshqa tomonlarni ham qamrab olishga intiladi.

Ammo ularda ham ma'lum kamchiliklar bor:

Ular o'qituvchilarga yordam berishi maqsad qilingan bo'lsa ham avvalboshidan tadqiqotchilar uchun shakllantirilgandir;

Ular etnografik yoki sifatga asoslangan baholashga urg'u bersada, barbir kvantitativ baholashga bog'liq ko'proq;

Talqinga asoslanishiga qaramay, kuzatilgan darsni qanday talqin qilish haqida ko'rsatma bermaydi

Kumaravadevelu "macrostrategies mismatch observational scheme" – makrostrategiyalarda nomuvofiqliklarni

kuzatish sxemasini taklif etadi¹². Mazkur sxema uch darajani o'z ishiga oladi: kuzatish boshlanishidan oldingi daraja – bunda o'qituvchi va nazoratchi darsdan oldin darsning maqsadi, erishilishi kerak bo'lgan natijalar, kuzatiladigan mashg'ulotlar haqida gaplashib oladilar; kuzatish darajasi; kuzatishdan keyingi daraja – bunda o'qituvchi va kuzatuvchi batafsil ko'rib chiqish uchun darsning ma'lum epizodini tanlab olishadi, darsda berilgan bilim va o'rganuvchilar bilan o'zaro muloqotni tahlil qiladilar, tahlil natijalarini talqin qiladilar, pedagogik jihatdan nima samarali bo'lganini xulosalaydilar, olingan tajribani shaxsiy amaliyot nazariyasini rivojlantirish uchun qo'llaydi.

Mazkur darajalar 10ta bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Darsning tahlil qilishini xohlagan o'qituvchi o'z hamkasblaridan birini tanlab, dars kuzatish xohishi bor-yo'qligi bilan qiziqib, darsini kuzatishga taklif qiladi.

2. Kuzatuvchi kuzatilishi kerak bo'lgan darsning natijalari, o'qituvchi bu natijalarga qanday erishmoqchiligi, o'quvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasi, o'rganishga bo'lgan rag'bati, ishtiroki kabilar haqida ma'lumot oladi.

3. Ma'lumotlarni olgach, kuzatuvchidan ayrim narsalarni tushuntirib berishini so'rashi mumkin.

4. Kuzatuvchi darsga kirib, videoga oladi, o'zi uchun qiziq bo'lgan masalalar xususida fikrlarini qayd etadi.

5. Dars tugashi bilan (darsda kuzatganlari esidan chiqib ketmasidan oldin) o'qituvchi videoni ko'rishi, o'zi uchun qiziqarli bo'lgan jihatlar haqida fikrini qayd qilishi kerak. Ushbu hal qiluvchi bosqichda o'qituvchi quyidagi savollarni berishi mumkin: Men barcha mavzularni boshladimmi yoki shogirdlarim ba'zi tashabbuslarni ko'rsatdimi? Savollarning aksariyati ma'lum axborotni berish talab qiladigan

¹² Kumaravadivelu, B. Beyond Methods: Macrostrategies for Language Teaching. Yale University Press. 2003. Pp.284-315.

savollar yoki avvaldan noma'lum axborotni talab qiladigan savollarni edimi? O'qituvchi / talabalar nutqining - tashabbus ko'rsatish, javob berish, tushuntirish, modellashtirish, muzokaralarning yo'nalishi qanday bo'ldi? O'quvchilar o'rtasida fikr almashish bo'ldimi? Men bergan ko'rsatmalarimning qaysi qismi samarali yoki samarasiz bo'ldi? Muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlikka sabab (lar) nima bo'lishi mumkin? U yoki bu qismda qanday makrostrategiya ishlatilishi mumkin edi? Qanday nomuvofiqlikni oldindan taxmin qilish va oldini olish mumkin edi? Qanday o'zgarishlarga ta'sir qilishim mumkin edi?

6. O'z qaydlariga asoslanib o'qituvchi va kuzatuvchi kelishgan holda o'zaro muloqot bo'lgan epizodlarni keyingi tahlil uchun tanlab oladilar.

7. Kuzatuvchi va o'qituvchi tanlab olingan epizodlarda qatnashgan o'quvchilar bilan uchrashib, o'rganuvchi-o'rganuvchi, o'rganuvchi-o'qituvchi muloqotidagi berilgan ma'lumot haqida fikrini so'raydilar. Bu darsga nisbatan o'rganuvchi nuqtayi nazaridan qarash imkonini beradi.

8. O'qituvchi va kuzatuvchi yana ko'rishib, tahlil qilgan epizodlar xususida nimalar erishildi-yu, nimalarga erishilmagani xususida o'zaro fikr almashadilar.

9. O'qituvchi dars haqida o'zining, o'rganuvchining va kuzatuvchining nuqtayi nazarini bir joyga jamlaydi. Darsdagi jarayonlarni talqin qilish uchun makrostrategiyalar va nomuvofiqliklarni asosiy yo'naltiruvchi sifatida qo'llaydi.

10. Vanihoyat, o'qituvchi hamma tahlil va xulosalarni o'zining o'qituvchilik faoliyatini baholash uchun qo'llaydi. Shu asosda u o'zining amaliyot nazariyasini shakllantirishi mumkin.

Mavzu yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Kumaravadivelu, B. Monitoring teaching acts.// Beyond Methods: Macrostrategies for Language Teaching. Yale University Press. 2003. Pp.286-315.

2. Taylor E. (2002). Research in your own classroom. In Methodology in Language Teaching. Cambridge University Press. P.397-404

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Darsni kuzatish haqida nima bilasiz? Nima uchun dars kuzatiladi?

2. Dars kuzatish modeli deganda nima tushuniladi?

3. Dars kuzatishning qanday modellari bor?

4. Dars kuzatishning natijaga asoslangan modellari bilan jarayonga asoslangan modellari o'rtasida qanday farq bor?

5. Dars kuzatish uchun Kumaravadivelu qanday model taklif qiladi?

6. Kumaravadivelu taklif qilgan sxemani amalda qo'llab, natijani tahlil qiling.

MAXSUS FANLARNI O'QITISH METODIKASI FANINING TIL TA'LIMIGA OID FANLAR MODULI BO'YICHA AMALIY MASHG'ULOTLARINI O'TISH

Mazkur fan yuzasidan o'tiladigan amaliy mashg'ulotlar ma'ruza mashg'ulotlarida o'tilgan mavzularni mustahkamlash, u mavzular doirasida olingan bilimni amaliyotga joriy qilish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilishi kerak. Amaliy mashg'ulotlar talabaga ma'ruza mashg'ulotlarida berilgan nazariy bilim asosida amaldagi mavjud holatlarni tahlil qilishni o'rgatishi kerak. Xususan, "Til o'qitishda turli nazariy yondashuvlar" mavzusida o'tilgan konsepsiyalar, ular o'z ichiga qamrab oladigan yondashuvlar va metodlarni mahalliy ta'lim an'analarni tahlil qilish uchun qo'llay olishi kerak.


6-MAVZU: O‘QISH, YOZISH, TINGLASH VA GAPIRISH MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH

Ta’lim jarayoni asosan til vositasida kechar ekan, ona tili ta’limi ta’lim tizimidagi fanlar orasida alohida o‘rin tutadi. Boshqa fanlarning o‘zlashtirilishi o‘quvchining o‘z ona tilida yozma matnni, og‘zaki matnni tushunish, o‘z fikrini yozma va og‘zaki shaklda izchil bayon eta olish ko‘nikmasi bilan bevosita bog‘liq. Aytish mumkinki, ona tili ta’limi har qanday bosqichdagi ta’limning negizini tashkil etadi. Tilning eng birinchi vazifasi ma’lumotni kodlash va dekodlashdir, ya’ni so‘zlovchi o‘z fikrini to‘g‘ri ifodalashi kerak va qabul qilingan nutqda berilgan ma’lumotni to‘g‘ri tushunishi kerak. O‘rta maktabda ona tili ta’limi tilning aynan shu – birlamchi funksiyasini qo‘llash malakasini shakllantirishga qaratilishi kerak.

Psixolingvistik tadqiqotlardan ma’lumki, insonning til qobiliyati to‘rt xil kognitiv malakaning o‘zaro bog‘liqligida rivojlanadi: eshitib tushunish, fikrini og‘zaki bayon qilish, o‘qib tushunish, fikrini yozma bayon qilish. Eshitib tushunish va gapirish og‘zaki nutq shakli bilan bog‘liq, o‘qib tushunish va yozish esa tilning yozma shakli bilan. Eshitib tushunish va o‘qib tushunish psixologik tomondan nutqni qabul qilish jarayoni, gapirish va yozish esa nutq yaratish jarayonidir. Mazkur malakalarning har biri insonning turli a’zolari yordamida yuzaga chiqar ekan, ularning har biri o‘zaro bog‘liqligi bilan birga, bir-biridan farqli ekanligiga e’tibor qaratish zarur. Xususan, nutqni eshitib tushunish inson bosh miyasining chakka qismida joylashgan neyronlar ta’sirlanishi asosida amalga oshadi; o‘qib tushunish bosh miyaning ensa qismidagi neyronlar yordamida; gapirish bosh miyaning peshona bo‘limidagi nutq a’zolarini harakatlantiruvchi neyronlar yordamida; yozish esa bosh miyaning

pehona bo'limidagi qo'lni harakatlantiruvchi neyronlar yordamida amalga oshiriladi. Bir qarashda mazkur farqlar muhim emasday tuyuladi, chunki asosda semantik tizim bitta bo'ladi, semantik tizim qolgan hammasini boshqaradiganday tasavvur qilamiz, chunki sog'lom odamda mazkur to'rt malakaning jiddiy farqi sezilmaydi. Ko'p kitob o'qigan odam yaxshi gapiradi, yaxshi yozadi deb qaraladi, bunday bo'lmasa u istisno sifatida e'tiborga olinmaydi. Mazkur yondashuvga neyrolingvistik tadqiqotlar chek qo'ygan. Nutqiy patologiyasi bor bemorlar kuzatilganda, ularning gapirishi va tushunishida farq borligi aniqlangan. Masalan, Broka afaziyasiga chalingan bemorlar gapni nisbatan yaxshi tushunadi, biroq yaxshi gapira olmaydi, ularning nutqi telegrafik xarakterda bo'ladi. Shuningdek, afaziyaga chalingan kishi bir narsaning nomini og'zaki aytganda boshqacha, yozma yozib berganda boshqacha aytish holatlari kuzatilgan. Masalan, B.Rapp va A.Karamatsa bir bemor rasmni yozma va og'zaki nomlashda ikki xil natija ko'rsatganligini qayd etganlar. Jumladan, bemorga cho'tkaning rasmi ko'rsatilganida bemor yozma javobda "cho'tka" deb yozgan bo'lsa-da, og'zaki javobda "taroq" degan. Shuningdek, piyoz rasmi ko'rsatilganda yozma "piyoz", og'zaki "banan", boyo'g'li rasmi ko'rsatilganda yozma "boyo'g'li" og'zaki "toshbaqa" javoblarini bergan. Bu kabi tajribalar natijalari umumlashtirilib so'zning inson ongida aks etish modeli yaratilgan. A.Ellis va A.Yang muallifligidagi ushbu modelning markazida semantik tizim turadi. Unda ikkita qabul qiluvchi tizim: ko'rish tahlil tizimi va eshitish tahlil tizimi; ikkita chiquvchi tizim: fonema va grafema darajasi mavjud¹³.

¹³ Ellis, A.W., & Young, A.W. (1988). Human cognitive neuropsychology. Hove, UK: Lawrence Erlbaum Associates Ltd. P.222.



1-rasm. Ellis va Yangning so'zni qayta ishlash modeli.

Eshitish tahlil tizimi orqali nutq tovushlari qabul qilinib olar ekan, u audio-kirish leksikonidagi mavjud so'zlar bilan solishtiriladi va so'z nutqiy oqimdan ajratib, so'z sifatida anglanadi, mazkur shaklga bog'langan ma'no faollashadi. Mohiyatan olganda biz nutqni turli chastotalarga ega tovush to'lqinlari sifatida qabul qilamiz. Mazkur to'lqinlar insonning quloq pardasini turli chastotalarda tebratadi. Bu tebranishlar insonning eshitish tizimi orqali bosh miyaga uzatiladi. Biz eshitib tanigan so'z – bu bir xilda takrorlangan to'lqin chastotalari demak. Uning ma'nosi esa o'sha to'lqin chastotalari guruhi qabul qilinganda inson turgan vaziyat bilan bog'liq holda shakllangan bo'ladi. Shu zaylda insonda audio-kirish leksikoni shakllanadi.

Matnni o'qiganimizda esa biz tekislikda aks etgan turli chiziqlar majmuini qabul qilamiz, ular grafema deb

ataladi. Mazkur grafemalarga ma'lum til tizimidagi fonemalar shartli ravishda bog'langan bo'ladi. Insonda o'qish tajribasi ortib borar ekan, u so'zlarni harflab emas, butun qabul qilish darajasiga chiqadi. Bunda so'zning boshidagi va oxiridagi harf muhim bo'ladi. Grafemalarning ma'lum kombinatsiyalari ko'p takrorlanishi ortidan insonda vizual kirish leksikoni shakllanadi.

Shifokorlarning yozuvi xunuk degan stereotip mavjud. Ular yozgan retseptni nima uchun bemor yoki oddiy sotuvchi o'qiy olmaydi, lekin dorixonadagi farmatsevt o'qishda qiynalmaydi? Shifokor retseptda dorilarning nomini yozadi. Dorilarning nomi so'z sifatida bizning lug'atimizda faol qo'llanuvchi so'zlar sirasiga kirmaydi. Odatda, biz u dorining nomiga birinchi marta duch kelamiz, ya'ni bizning vizual kirish leksikonimizda dorining nomi birlik sifatida mavjud emas. Farmatsevtning vizual leksikonida esa u so'z bor, shuning uchun shifokorning yozuvi qanchalik tushunarsiz bo'lmasin, farmatsevt o'zi tanigan ayrim harflar kombinatsiyasidan gap aynan qaysi dori haqida ketayotganligini anglay oladi.

Inson so'zlar ekan uning nutq apparati ishlaydi. Uni ishlatishni inson chaqaloqligida turli tovushlarni chiqarib sinab ko'rish orqali o'rganadi. Bola talaffuzda avval tovush, keyin bo'g'in, keyin so'zga o'tishi ham nutq apparatini boshqarishni sekin-sekin, oddiydan murakkabga tomon o'zlashtirishini dalillaydi. O'zbek bolalarining aksariyati non emas nanna deyishi bola hali nutq apparatini to'liq boshqara olmayotganini bildiradi. Xususan, o – lablangan unli, uni talaffuz qilish lablanmagan unli bo'lgan a unlisiga nisbatan ko'proq harakat talab qiladi. So'zni undosh bilan tugatish o'pkadan og'iz bo'shlig'i orqali chiqayotgan havo oqimini to'xtatish demak. Unli bilan tugatish esa qo'shimcha harakat talab qilmaydi. Shuning uchun bola so'zlarni avval nutq apparatini boshqarishni o'rgangan darajasida ta-

laffuz qiladi va bu odatda kattalarning talaffuzi bilan bir xil bo'lmaydi. Bola o'zi talaffuz qilgan so'zni eshitadi va kattalarniki bilan solishtira olgani uchun o'z xatosini anglaydi, o'z talaffuzi ustida ishlashi ortidan so'zlarning to'g'ri talaffuzini o'zlashtiradi. So'zni talaffuz etish murakkab jarayon. Masalan, shu non so'zini olaylik: o'pkadan chiqayotgan havo oqimi ovoz paychalari, og'iz bo'shlig'i va burun bo'shlig'iga taqsimlanib, tilning old qismini tanglayga tekizib og'iz bo'shlig'idagi havo oqimini to'sib, n undoshini talaffuz qilish, keyin tilni pastga tushirib, tilning orqa qismidagi muskullarni, lablarni harakatlantiruvchi muskullarni qisqartirish bilan o unlisini talaffuz qilish, keyin tilni yana avvalgi joyiga qaytarib n undoshini talaffuz qilish demakdir. Har bir muskul qisqarishi uchun bosh miyadan alohida signallar jo'natiladi. Ma'lum so'z qayta-qayta talaffuz qilinar ekan, uning talaffuzi uchun ishlaydagan muskullarga jo'natiladigan signallarni boshqaruvchi neyronlar o'rtasida aloqa mustahkamlanib boradi. Shu asosda insonda og'zaki chiqish leksikoni shakllanadi.

Grafemik chiqish leksikonining shakllanishida ham shu kabi tamoyilga amal qilinadi, faqat unda qo'lning harakatini nazorat qiluvchi neyronlar guruhi ishlaydi.

Eshitib tushunish malakasi chet tilini o'rganayotganda muhim deb qaraladi. Ma'lum vaqt davomida mazkur malaka chet tiliga o'qitish darslarida ham e'tibordan chetda bo'lgan. Til o'rgatish darslaridagi asosiy yondashuv grammatik qonun-qoidalarni va tarjima qilishni o'rgatish bo'lgan. Bu kabi yondashuv til o'rganuvchini tabiiy til muhitiga tayyorlay olmagan sabab, shuningdek, tilni tezroq va samaraliroq o'rgatish yo'li sifatida eshitish va takrorlash (audiolingval metod) til o'rgatish amaliyotida qo'llanila boshlagan¹⁴.

¹⁴ Richards, J. (2002) Theories of Teaching in Lanugage Teaching. In Methodology in Language Teaching. Cambridge University Press. P. 20

Psixolingvistik va neyrolingvistik tadqiqotlar insonning ilsoniy malakasi to'rt kognitiv malaka: eshitib tushunish, o'qib tushunish, og'zaki nutq va yozma nutqdan tashkil topganligini xususida xulosalarni taqdim etgani ham til o'rgatish darslarida mazkur to'rt malakaga alohida e'tibor berila boshlangan.

"Ona tili darslarida eshitib tushunishga alohida e'tibor qaratish shartmi?" degan fikr ko'plab o'qituvchilarni o'ylantirishi mumkin, chunki inson o'z ona tilida eshitib tushunishga malakasi avtomatik ravishda shakllanadi deb qaraladi. Biroq hammamiz yaxshi bilamizki, bir ma'lumotni hamma bir xil eshitsa-da, har kim har xil tushunadi. Mazkur holatlar eshitish jarayoni passiv – shunchaki signalni qabul qilish emas, balki nutqiy signalni qabul qilib, uni qayta ishlab, ya'ni gapning strukturasi to'g'ri razbor qilish – gap bo'laklarining vazifasini to'g'ri anglash, so'zlarning kontekstual ma'nosini to'g'ri anglash va ular birgalikda bildirayotgan ma'noni tushunish demakdir.

Eshitib tushunish malakasini shakllantirish uchun mazkur jarayonning tafsilotlarini bilish muhimdir. Bu o'rinda bizga psixolingvistik tadqiqotlar yordam beradi. I.Azimovanning "O'zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi" nomli monografiyasida matnni eshitib tushunish bo'yicha tajriba bayoni berilgan. Tajribada O'zMUning O'zbek filologiyasi fakultetining 1-kursida o'qiyotgan 60 ta talaba ishtirok etgan. Ularga matn to'rt marta o'qib eshittirilgan. 60ta talabadan 4tasi matnni to'liq tushungan. 26tasi matnni yaxshi tushungan, biroq ayrim ma'lumotlar tinglovchining e'tiboridan chetda qolgan. 17ta ishtirokchi matnda qo'llangan so'zlarning kontekstual ma'nosini tushungani holda, ayrim gaplarni to'liq tushunmagan. 13 ishtirokchi matndagi so'zlarni tushungan,

biroq aksariyat gaplarni tushunmagan¹⁵. Mazkur holat ona tilini o'rganish jarayonida ham eshitib tushunish malakasi-ga alohida e'tibor qaratilishi kerakligini bildiradi.

Tushunish jarayoni o'rganilganda shu narsa ma'lum bo'lganki, eshituvchining emotsionalligi va stereotiplari sabab eshituvchi berilgan matnni to'liq eshitmasligi mumkin. Bu ham eshitib tushunishga xalal beradigan holat bo'lgani uchun o'rta maktabdagi mashg'ulotlar davomida alohida e'tibor talab qiladi. Bola tushunishda yo'l qo'ygan xatolari muntazam ravishda ko'rsatilsa va xatoning asosi tushuntirib borilsa, bola tushunish jarayonini ongli ravishda boshqarishga o'rganadi.

Masalan, sevgi haqidagi bir qo'shiqning klipida xonanda va cholg'uchilarning orqasidagi fonda dunyo xaritasi turibdi. "Qo'shiq global masala haqida emas, sevgi haqida bo'lsa, klipda dunyo xaritasiga nima bor?" degan savol kishini o'ylantiradi. Savolning javobi qo'shiq so'zlaridan kelib chiqadi: "yuragimni chizib berdim, qaramading, xaritasin tuzib berdim, qaramading..." Ayni vaziyatda xarita so'zi bilan dunyo xaritasi sifatida qabul qilingan.

Matnning bir parchasi (ayni vaziyatda matndagi bir so'z) ta'sirida yuzaga kelgan assotsiatsiya tushunishning boshlang'ich darajasida ongda hosil bo'ladi va matn mazmuni to'lig'icha qabul qilinganda u chetga chiqishi kerak. Masalan, kishi "yuragim...xaritasin tuzib berdim" jumlasini eshitish jarayonida xarita so'zini alohida qabul qilganda dunyo xaritasi tushunchasi unga assotsiatsiya bo'lishi mumkin. Ammo *xarita* so'zini qo'shiq matni ichida u bog'langan *yurak* so'zi bilan birga qabul qilar ekan, uning ko'chma ma'noda qo'llanganini xulosa qiladi va "dunyo xaritasi" tushunchasi tushunish jarayonida boshqa ishti-

¹⁵ Azimova I.A. O'zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy pertsepsiyasining psixolingvistik tadqiqi. Monografiya. Toshkent, 2020. B.19-24.

rok etmasligi kerak. Keltirilgan misolda “dunyo xaritasi” tushunchasi klipga orqa fongacha yetib borganligidan bilish mumkinki, *xaritasi* so‘zining matn ichidagi ma’nosi retsipiyent tomonidan qabul qilinmagan, balki alohida so‘z sifatida qolib ketgan.

Mazkur holatlar bizga tushunish jarayonidagi tafsilotlar haqida ma’lumot beradi. Ona tili o‘qituvchisining matni tushunish jarayonidan to‘liq xabardor bo‘lishi, undagi har bir darajada qanday lisoniy birliklar ishlashini bilishi bolaning tushunishiga to‘g‘ri baho berish va uning tushunish qobiliyatini o‘stirishga xizmat qiladi.

Yaqinda 5-sinf o‘quvchilarining ona tili darslarida eshitib tushunish malakasining rivojlantirish bo‘yicha Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti va Toshkent shahri Chilonzor tumanidagi 114-maktab bilan hamkorlikda ilmiy tadqiqot olib borilib, eshitib tushunish malakasiga alohida e’tibor berilib o‘qitilganda tajriba guruhida nazorat guruhiga qaraganda ushbu malakaning sezilarli farq bilan rivojlanishi qayd etildi¹⁶. Aytish mumkinki, ona tili darslarida bolaning eshitib tushunish malakasiga alohida e’tibor berilib, ta’lim jarayonidan tilning yozma shakli bilan teng o‘rin olishiga ehtiyoj mavjudligi birinchi marta ilmiy jihatdan isbotlab berildi.

Eshitib tushunish malakasini shakllantirish uchun avvalo, eshitib tushunish jarayoni qanday kechishi xususida ma’lumotga ega bo‘lish zarur. Eshitib tushunishni “yuqoridan pastga” va “pastdan yuqoriga” yo‘nalishida kechuvchi jarayon sifatida talqin qilish mumkin. “Yuqoridan

¹⁶ Murodova A. Eshitib qabul qilishda matnda ifodalangan ma’lumot dekodlanishining tajribaviy tadqiqi. *Global ta’lim va milliy metodika masalalari*. Ilmiy-anjuman materiallari. Toshkent, 2020. B. 179-184; Murodova A. Ona tili ta’limida eshitib tushunish malakasining o‘rni. *Til va adabiyot ta’limi* jurnali. Toshkent, 2019. # 7. B. 13-14.

pastga” yo‘nalishida nutqiy signalning katta birliklardan kichik birliklarga qarab qayta ishlanishi nazarda tutiladi, ya’ni umumiy nutq oqimining ohangi, undan gaplarni ajratish, gaplarning ichida sintagmalarni, sintagma ichidan so‘z birikmalarni, ulardan so‘zlarni ajratish kabi masalalar hal qilinadi¹⁷. “Pastdan yuqoriga” yo‘nalishida fonemalardan bo‘g‘inlarga, bo‘g‘inlardan so‘zlarga, so‘zlardan birikmalarga, birikmalardan sintagmalarga, sintagmalardan gaplarga, gapdan yaxlit nutqqa qarab mazmun tushunib boriladi. Mazkur ikki yondashuvning unisi yoki bunisi kechadi, deb qat’iy aytib bo‘lmaydi. Nutqni anglash jarayonida zaruratga ko‘ra ikkala yondashuv ham qo‘llanadi. Inson ongingning nutqiy signalni qayta ishlashdagi ushbi ikki yo‘nalishi tabiatidan kelib chiqqan holda vazifa va topshiriqlarni belgilash mumkin. Masalan, “yuqoridan pastga” yo‘nalishi uchun eshittirilgan nutq yuzasidan nutqning maqsadi va xarakterini aniqlash, nutq til uslublarining qaysinisiga xosligini belgilash, nutqning umumiy mazmuni haqida xulosa chiqarish kabi topshiriqlar berish mumkin. “Pastdan yuqoriga” yo‘nalishi uchun nutqda qo‘llangan so‘z va so‘z birikmalarini qayd etish, qandaydir xarakterli so‘zlarni (masalan, raqamlar yoki sifat turkumiga oid so‘zlar yoki notanish so‘zlar) eslab qolish yoki yozib olish kabi topshiriqlar berilishi mumkin. Mazkur topshiriqlar ikkala yo‘nalishda ham diqqatni kerakli obyektga qaratish ko‘nikmasini shakllantiradi.

D.Nunan ham “pastdan yuqoriga”, ham “yuqoridan pastga” yondashuvini baravar qo‘llaydigan “diktogloss” texnikasi haqida ma’lumot beradi. Unda o‘qituvchi matni odatiy tezlikda o‘qib eshittiradi. O‘quvchilardan imkoni boricha so‘zlarni qayd etish so‘raladi. Keyin o‘quvchilar

¹⁷ Dahan, D. Magnuson, J.S. (2006) Spoken Word Recognition. In Handbook of Psycholinguistics. Elsevier Inc. P. 249-284.

guruh bo'lib, o'zlari qayd etgan so'zlariga tayanib eshitgan matnni qayta tiklashi so'raladi¹⁸.

Diktogloss texnikasi quyidagi to'rt bosqichdan tashkil topadi:

1. Tayyorgarlik.
2. Matnni o'qib eshittirish.
3. Matnni tiklash.
4. Tahlil qilish va xatolarni to'g'rilash.

Birinchi bosqichda o'qituvchi o'quvchilarni tayyorlaydi. O'qilishi rejalashtirilayotgan matn mavzusiga aloqador savollar beradi, yoki shunga aloqador rasm ko'rsatadi va hkz.

Ikkinchi bosqichda matn ikki marta o'qib eshittiriladi. Birinchisida o'quvchilar matnni shunchaki eshitadilar. Ikkinchisi marta eshitish davomida o'zlari muhim deb bilgan narsalarni qayd etadilar.

Uchinchi bosqichda guruh bilan birgalikda o'z qaydlari asosida matnni qayta tiklaydilar.

To'rtinchi bosqichda o'quvchilar tiklagan matnlar original matn bilan qiyoslanadi.

Eshitib tushunish malakasini shakllantirishda nutqni turli maqsadlarda eshittirish muhimdir. Buning uchun tushunishni aks ettirishi lozim bo'lgan topshiriqlar turli xarakterda bo'lishi kerak. Masalan, ma'lum joy yoki predmetning tavsifini eshitib, uni rasmda ifodalash, ma'lum sayohat tafsilotlarini eshitib, sayohatchilar marshrutini belgilash (ular borgan joylarni tartib bilan yozish), tushirib qoldirilgan so'zlarni yozish, eshitgan nutqi asosida ma'lumotlarni tavsiflash kabi. Shuningdek, eshittiriladigan nutq ham turli xarakterda bo'lishi lozim: monolog, dialog, suhbat, munozara. Mazkur turfa xillilik o'quvchida nutqning turli jihat-

¹⁸ Nunan, D. (1991) Language Teaching Methodology. Prentice-Hall. Pp.25-35.

lariga e'tibor qaratish ko'nikmasini shakllantiradi. Albat- ta, nutq mavzusi bolaning yoshiga mos ravishda qiziqarli bo'lishi kerak.

O'qib tushunish malakasini rivojlantirish. Maktabda birinchi sinfda harflar va yozma matnni o'qish o'rgatila- di. Keyinchalik o'qish darslarida matnni o'qib tushunish ko'nikmasiga e'tibor qaratiladi. 5-sinfdan keyin matnni tushunish faqat adabiyot darslari bilan cheklanadi. Ona tili darslarida ham ba'zan matndan parchalar beriladi, ammo ular bevosita o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirish- ga qaratilmagan. Adabiyot fani badiiy matn bilan ishlaydi. Badiiyat obrazlar bilan ish ko'rar ekan, unda matnda qo'l- langan vositalarni to'g'ri dekodlash masalasiga alohida e'tibor qaratilmaydi. Ona tili fani doirasida esa grammatik qonun-qoidalar matndan uzib olingan alohida gaplar miso- lida tushuntiriladi, matnni til birligi sifatida o'rganish, tahlil qilishga ko'p e'tibor qaratilmaydi.

Matnni o'qib tushunish murakkab psixolingvistik ja- rayon bo'lib, grafemalarni tanish, so'zni o'qish, so'zning lug'aviy ma'nosini, kontekstual ma'nosini anglash, sin- taktik strukturani to'g'ri hal etish (ya'ni so'zlarning o'zaro munosabati, qaysi so'z gapdagi asosiy tushunchani, qay- silari unga tobe tushunchalarni ifodalayotganini anglash), shuningdek, matn mazmuniy bloklarining o'zaro bog'la- nishini tushunish kabi darajalardan iborat bo'ladi. Mazkur darajalar matnni tushunish, uning mazmuniy proyeksi- yasini ongda hosil qilgunga qadar kechadigan jarayon- lar bo'lib, matnni o'qib chiqqan har bir o'quvchi mazkur darajalardan o'tib matnni to'liq tushunadi deb bo'lmaydi. Har bir o'quvchining qabul qilish qobiliyati har xil bo'l- gani uchun matnni bir xilda o'qib chiqqanlar tushunish- ning har xil darajasida turgan bo'ladi. O'qituvchi ushbu darajalarni yaxshi bilsa, savollar yordamida o'quvchining

qaysi darajada turganini aniqlashi, matnni yaxshiroq tushunishi uchun yo'nalish berishi mumkin bo'ladi. Ona tili darsliklaridagi matn bilan ishlash mashqlari ham mazkur nazariy ma'lumotga asoslanishi lozim. Masalan, matnni tushunishning dastlabki darajasi assotsiativ daraja bo'lsa, unda o'quvchida matn mavzusi, matn uslubi va matndagi so'zlarga assotsiatsiyalar yuzaga keladi. Keyingi daraja bu leksik-morfologik daraja bo'lib, bunda o'quvchi matndagi so'zlarni va ularning ma'nosini tushunadi. Uchinchi daraja kontekstual daraja bo'lib, unda so'zlarning kontekstual ma'nolari anglashiladi. Fikrimizcha, matn bilan bog'liq mashqlarda aynan shu uchinchi darajaga ko'proq urg'u berilishi kerak, chunki unda so'zlarning matn ichida qanday ma'noda kelayotgani anglashiladi, demakki, so'zlar alohida birlik darajasidan matn mazmunining tarkibiy qismi darajasiga ko'tariladi. O'quvchiga matnda ma'lum tushunchani ifodalayotgan so'zlarni va so'z birikmalarini topish, matndagi jumlaning o'z so'zlari bilan ifoda etish kabi topshiriqlar so'zning kontekstual ma'nosiga yaxshiroq e'tibor berishga undaydi. Shu kabi mashqlar asosida bolada matnni diqqat bilan o'qish ko'nikmasi shakllanib boradi.

O'qib tushunish malakasini rivojlantirish uchun matn bilan ishlashga quyidagi shakldagi topshiriqlar berish mumkin.

Matn

Mastura opa uchun, yosh kelin-kuyov uchun baxtiyor onlar boshlandi. Biroq uzoqqa cho'zilmadi bu onlar. Yana Mastura opaning sho'rlik boshiga taqdirning beshafqat tayog'i tushdi. Bu safar tayoq zarbi oldingi hamma zarblarga nisbatan kuchliroq, ayanchliroq bo'ldi. Bir kunda Mastura opa ham o'g'lidan, ham kelinidan judo bo'ldi. Bir

kunda kampirga aylandi. O'g'lining ham umri otasinikiga o'xshab qisqa ekan.

Mastura xola qo'lida bir yasharu ikki oylik nabirasi bilan chinqirib qolaverdi. Mashinaga bo'lgan ishqibozlik yedi o'g'lining boshini. Yosh bolaligidan mashina desa o'zini tomdan tashlardi. Ishga kirishi bilan mashina oldi. Xotinini ham tinch qo'ymadi, har shanba mashinaga o'tqazib toqqa olib chiqib o'ynatib kelardi. Rahmatli kelin ham alomat edi, erkakcha shim kiyvolib eri qayoqqa sudrasa ketaverardi. Xullas, eru xotin xil tushishgan edi. Taqdirlari ham xil tushgan ekan... Bir kunda... Mastura xola gohida taqdir deganiga hayron qolardi, bu qanday adolatsizlikki yovuz ajal qariyalar qolib, yoshlarning umriga changal soladi. Jigargo'shalarining qazosidan keyin onaizor: "Men baxti qaroni olaqolsang bo'lmasmidi", deb falakka ko'p nolalar qildi, uzoq vaqt majruh bo'lib yotdi. Yo'q, yana o'zini o'ngladi. To'g'ri, bu gal azob bilan arang o'ngladi o'zini. Nabirasi Rixsivoyni oyoqqa turg'azish mas'uliyati uning yuragiga qo'r berdi. Nariroqqa borib taqdirga tan berdi, boshiga tushgan kulfat vaqt o'tgan sari zaiflashib xiralashdi. Keyinchalik esa o'g'lining o'rniga o'g'il qolgani uchun shukr qildi. Bandasi shunaqa ekan, hamma narsaga, har qanday jabrga ko'nib ketaverar ekan.

Farhod Musajonov "Bir qultum buloq suvi"

1-topshiriq. Matnda berilgan 8 ta faktni belgilang.

1. Mastura opaning eri o'lgan.
2. Mastura opaning o'g'li o'lgan.
3. Mastura opaning kelini o'lgan.
4. Mastura opaning nevarasi bor.
5. Nevara o'g'il.

6. Nevaraning ismi Rixsivoy.
7. Mastura opaning o'g'li va kelini avtohalokatda o'lgan.
8. Mastura opaning yoshi 60 da.
9. Mastura opaning o'g'li 25 yoshda o'lgan.
10. Nevarasi zukko.
11. Mastura opaning o'g'li mashinaga ishqiboz bo'lgan.
12. Mastura opaning kelini arxeolog.
13. Mastura opaning o'g'li injener.

2- topshiriq. Har bir fakt qarshisiga matndan mos keluvchi gapni qo'yib chiqing.

3-topshiriq. Matnda qo'llangan quyidagi so'z va birikmalarning ma'nosini toping.

taqdirning beshafqat tayog'i

- A. Xafa qiladigan hodisa
- B. Sinov
- D. Tayoq
- E. Shafqatsizlik.

eru xotin xil tushishgan edi

- A. Eru xotin – qo'sh ho'kiz.
- B. Eru xotin bir-biriga mos.
- D. Eru xotin bir-biriga mos emas.
- E. Er – podsho, xotin – vazir.

yovuz ajal

- A. Yovuzlik
- B. O'lim
- D. Yolg'izlik
- E. Falokat

jigargo 'sha

- A. Farzand
- B. Bola
- D. Qarindosh
- E. Jigar go'shti

yuragiga qo'r berdi

- A. Olov berdi
- B. Cho'g' berdi
- D. Yondirdi
- E. Madad berdi

Birinchi topshiriqning maqsadi bolaning matndagi ma'lumotga diqqat qaratishga o'rgatish, ya'ni til vositasida berilgan ma'lumotni to'g'ri tushunish – dekodlash qobiliyatini rivojlantirish. Bunda bola lisoniy ifodadan (so'z, so'z birikmasi) ma'noga o'tadi.

Ikkinchi topshiriq psixolingviistik nuqtayi nazardan ma'nodan shaklga – lisoniy ifodaga qaytishni talab qiladi. Aynan shu tarzda bola ongida ma'no va shakl o'rtasidagi aloqa mustahkamlanadi. Bu bolaning til birliklarini yaxshiroq o'zlashtirishiga xizmat qiladi.

Uchinchi topshiriq kontekstga asoslangan holda so'zlar va so'z birikmalarining ma'nosini chiqarishga o'rgatadi, shuningdek, yangi til birliklarini o'zlashtirishga yordam beradi.

Ona tilida o'qib tushunish malakasini rivojlantirish uchun yana bir matn parchasi va unga qanday topshiriqlar berish mumkinligini ko'rib chiqamiz.

Hozirgi paytda gazeta, tv va internet resurslarda korrupsiya va unga qarshi kurashish to'g'risida ko'p gapirilyapti. Masalaga chuqurroq qaraydigan bo'lsak, korrupsiyaning fundamenti bizning mentalitetimizga xuddi DNK kabi «programmalashib» ketmaganmikan? Buni bizda korrupsiyaning ko'rinishlari juda ko'pligidan ham sezish mumkin: «xamir uchidan patir», «aka-ukachilik», «muomalasini qilish», «xizmat bo'lsa, shaymiz», «bizda ham qolib ketmaydi», «sizdan ugina, bizdan bugina»... va oldin aytib o'tganim, «ishning ko'zini bilish» va yana bir qator terminlar aynan korrupsiya jarayonlarida ishlatiladigan iboralarga aylanib ulgurgan.

Mentalitetimizda «aka-ukachilik» fenomeni alohida o'rin kasb etadi. Akasi kattaroq davlat xizmatida yoki kuchishlalar tizimlarda ishlaydigan Shodivoy bosar-tusarini bilmay qoladi. Mashinasini xohlagan tezligida haydaydi, qizil chiroq u uchun emas, akasi katta ishda ishlamaydiganlar uchun yonadiganday go'yo.

Nurbek Alimov

“Aka-ukachilik? «Yo'q» deyishni o'rganishimiz kerak”

1. Muallif korrupsiyaning mentalitetga aloqasini nima uchun ma'lum iboralar bilan asoslaydi?

A. Keltirilgan iboralar xalq ichida bir-biriga ma'lum xizmat evaziga yo xizmat, yo biror buyum berilishini nazarda tutadi.

B. Iboralar tilda asrlar davomida shakllangan birlik bo'lib, o'sha millatning ma'lum masalalarga yondashuvini aks ettiradi.

C. Mentalitet ma'lum millatga tegishli bo'lgan madaniyat, dunyoqarash, yondashuvni aks ettiradi.

D. Korrupsiya ma'lum pul yoki buyum evaziga qonunni buzish yoki qonunning buzilishiga ko'z yumish demakdir.

2. Shodivoy nima uchun mashinasini xohlagan tezlikda haydaydi?

A. Yo'lchiroqning qizil chirog'i akasi katta ishda ishlaymaydiganlar uchun yonadi.

B. Chunki Shodivoyning akasi katta ishda ishlaydi.

C. Akasi o'z mansabini suiiste'mol qilib, uni qonuniy jazodan qutqarib qoladi.

D. Shodivoy mashina minganida bosar-tusarini bilmay qoladi.

Birinchi savolga javob berish uchun matnda qo'llangan iboralarning nima maqsadda qo'llanganini tushunish kerak bo'ladi. Bu so'z, so'z birikmasi yoki gapning mazmunini tushunishdan ham yuqoriroq daraja bo'lib, matn pragmatikasini anglashni talab qiladi. Yuqori sinflardagi ona tili darslari bolalarda aynan shu ko'nikmani rivojlantirishi kerak. Berilgan javob variantlariga qaraydigan bo'lsak, "A" javob noto'g'ri, chunki u matnda keltirilgan iboralarning mazmuni, ularning qanday vaziyatda ishlatilishi haqida ma'lumot beryapti. "C" javob ham noto'g'ri, chunki unda "mentalitet" so'zining ma'nosi izohlanyapti. "D" javob ham noto'g'ri, chunki unda "korrupsiya" so'zining ta'rifi keltirilyapti.

To'g'ri javob – "B", unda iboralarning mentalitet bilan aloqasi ko'rsatilyapti. Ma'lumki, har qanday til rivojlanadi, vaqt o'tish bilan turli omillar ta'sirida o'zgarib boradi. Iboralar mana shu o'zgarishlarga nisbatan chidamli birliklardir. Bu bilan millat zehniyatidagi nisbatan barqaror

yondashuvlarni aks ettiradi. Savolda korrupsiyaning mentalitet bilan aloqasi nima uchun iboralar bilan asoslangani haqida soʻrilyapti. Javobda iboralarning mentalitetga aloqadorligi aytilyapti.

Ikkinchi savolda matnda qoʻllangan kinoyaning mazmunini tushunish hamda dunyo haqidagi bilim talab etiladi. Matnni tushunish har doim faqat lisoniy birliklarni dekodlashdangina iborat boʻlmaydi. Inson matnni qabul qilar ekan, uning dunyo haqidagi umumiy bilimlari ham faollashib, matnni toʻgʻri tushinishi uchun yordam beradi.

Bu savolning javobi “C” variantda aks etgan. “A” variantni toʻgʻri javob sifatida belgilash kinoyani umuman tushunmaganlikni bildiradi. “B” javobni tanlash “Shodivoyning akasi katta ishda ishlashi” unga mashinani xohlagan tezlikda haydashiga huquq bermasligi, dunyoda yoʻl harakati qoidalari mavjud boʻlib, unga hamma birday boʻysunishi talab qilinishi haqidagi bilimdan bexabarlikni anglatadi. “D” javobni toʻgʻri javob sifatida belgilash matnda berilgan gaplar va ularning oʻzaro aloqasini toʻgʻri anglamaganlikni bildiradi, chunki “bosar-tusarini bilmay qoladi” ifodasi qoʻllangan gapda akaning katta lavozimda ishlashi ukaning oʻzini tutishiga salbiy taʼsir qilishi haqida aytilgan: *Akasi kattaroq davlat xizmatida yoki kuchishlatar tizimlarda ishlaydigan Shodivoy bosar-tusarini bilmay qoladi.*

Keyingi gapdagi maʼlumot akaning mansabi tufayli salbiy tomonga oʻzgargan harakatga misol sifatida keltiriladi: *Mashinasini xohlagan tezligida haydaydi, qizil chiroq u uchun emas, akasi katta ishda ishlaymaydiganlar uchun yonadiganday goʻyo.*

Ona tili darslarida oʻqib tushunish malakasini rivojlantirish turli uslubda qoʻllangan matnlarni toʻgʻri tushunish, til yordamida ifodalangan maʼlumotni dekodlay olish bilan

birga til birliklarining ma'no nozikliklari, ularning u yoki bu kontekstda qanday maqsadda ishlatilayotganini bilish kabi tilning pragmatik jihatini ham o'zlashtirishga qaratilishi kerak.

Og'zaki nutq malakasini rivojlantirish. Jonli suhbatdan tashqari biror nutq so'zlash talab qilingan vaziyatda jamiyatimizda odatda, bir xil gaplar aytilganiga guvoh bo'lamiz. To'yda tabrik aytilganda "Baxt tilayman, doim baxtli bo'ling" kabi jumlar, biror kino yoki hodisaga munosabat so'ralganda aksariyat so'zlovchilar "menga yoqdi, shunday kinolar ko'paysin" deb javob beradi. Bunday nutqlarda tahlil, xulosa emas, faqat munosabat aks etadi. Mazkur munosabat ham yo salbiy, yo ijobiy bo'ladi. Vaholanki, hodisani har kim o'z ongi, hayotiy tajribasidan kelib chiqib qabul qiladi va har kimning o'z talqini bo'ladi.

O'rta ta'limda bolaning og'zaki nutqi biror fandan o'tilgan ma'lum mavzuni gapirib berishda ko'riladi. Bunda bolaning mavzuni bilish-bilmasligi baholanadi, og'zaki nutq mahorati alohida e'tiborga olinmaydi.

Og'zaki nutqni qanday rivojlantirish kerak degan savol kun tartibiga qo'yilar ekan, avvalo og'zaki nutq ilmiy tadqiq qilingan ishlarga murojaat qilish zarur bo'ladi.

Ilmiy tadqiqotlarda og'zaki nutq tahlil qilinganda nutq tezligi, gaplarning o'rtacha uzunligi, ot va fe'l leksemalar soniga qaraladi. Nutq tezligi har bir minutda aytilgan so'zlar soniga asosan topiladi. Har bir minutdagi so'zlar soni qo'shilib, minut soniga bo'linadi. Gapning o'rtacha uzunligi unda qo'llangan morfemalar soniga asosan hisoblanadi. Bu ham nutq tezligi kabi har bir gapdagi morfemalar sonini qo'shib, gaplarning soniga bo'lish orqali aniqlanadi. Og'zaki nutqni tahlil qilishdagi asosiy xususiyatlardan biri bu gaplarning grammatik jihatdan shakllanganligidir. Bunda grammatik qoidalar buzilgan gaplar soni hisoblanadi.

O'zbek tilidagi spontan nutq neyrolingvistik tadqiqot doirasida tahlil qilinganda yoshi katta sog'lom kishilarda o'qimishlilik darajasiga ko'ra gap uzunligi farq qilishi kuzatilgan. Oliy ma'lumotli kishilarning nutqida gapning o'rtacha uzunligi oliy ma'lumotga ega bo'lmagan kishilarning nutqidagi gaplarning uzunligidan yuqoriroq bo'lgan.

12-13 yoshlardagi bolalarning og'zaki nutqi o'rganilganda til va adabiyotga ixtisoslashgan ijod maktabi va oddiy o'rta maktab o'quvchilari o'rtasida nutq sifati sezilarli farq qilishi qayd etilgan.

1-jadval. 12-13 yoshdagi ijod maktabi va oddiy maktab o'quvchilarining spontan nutqiga oid tajriba natijalari¹⁹

No	Ishtirokchilar	sodda gap %	murakkab gap (ajratilgan bo'lak, kiritma, uyushiq bo'lak, ishtirokida), qo'shma gaplar %	gapning yakunlanganligi	gap uzunligi	nutq tezligi
1	Ijod maktabi (1)	27.3	72.7	-	10.0	87.2
2	Ijod maktabi (2)	30.4	69.6	-	9.9	79.1
3	Ijod maktabi (3)	46.1	53.9	-	9.4	81.3
4	Ijod maktabi (4)	35	65	1 ta	9.9	69.8
5	Ijod maktabi (5)	37	63	-	8.9	87.6
6	Oddiy maktab (1)	52.3	47.7	2 ta	7.4	57
7	Oddiy maktab (2)	63.7	36.3	2 ta	4.8	60.8
8	Oddiy maktab (3)	69.2	30.8	-	5.85	47.5
9	Oddiy maktab (4)	66.7	33.3	2 ta	7.7	49
10	Oddiy maktab (5)	80	20	7 ta	7.4	60

¹⁹Ruframova Sh. 12-13 yoshli bolalar nutqining sintaktik tahlili (ixtisoslashgan va oddiy maktab o'quvchilari misolida). // *Global ta'lim va milliy metodika masalalari. Ilmiy-anjuman materiallari*. Toshkent, 2020. B. 381.

Xususan, gapning o'rtacha uzunligi, grammatik jihatdan to'liq shakllangan gaplarning soni, murakkab gaplarning miqdori bo'yicha ijod maktabi o'quvchilarining nutqi yaxshi shakllangan. Ijod maktablarida til va adabiyot darslari oddiy maktabdagiga nisbatan ko'proq bo'ladi. Bu degani bolalar til materiali bilan oddiy maktab o'quvchilariga qaraganda ko'proq ishlaydi. Mazkur yoshdagi o'quvchilar hali til o'zlashtirish jarayonidadirlar. Til o'zlashtirilishidagi muhim omil bu bolaga berilayotgan, bola qabul qilayotgan til materialidir. Ilmiy tadqiqotlarda aniqlanishicha, bolalar o'zlari muloqotda bo'lgan kishining nutqidagi xususiyatlarini avval o'zlashtiradi. Xususan, bolaning gap strukturasi o'zlashtirishida ota-onasi qo'llaydigan strukturalar yetakchilik qiladi. Shuning uchun maktabda og'zaki nutqni rivojlantirish haqida gap ketar ekan, bunda bolani sifatli nutq materiali bilan ta'minlash birinchi masala bo'lishi kerak.

Ona tili darslarida og'zaki nutq uchun alohida mashg'ulotlar ishlab chiqilishi zarur. Bunda birinchi navbatda bolaning o'z fikrini lisoniy vositalar yordamida to'g'ri ifodalash, mavjud lug'at boyligidan oqilona foydalanish, bir mavzudan chetga chiqmay gapirish, nutqni to'g'ri strukturalashtirish, ya'ni mavzuga kirish, asosiy fikrni aytish va xulosalash; aytadigan gapi eshituvchiga qanday ta'sir qilishini oldindan baholay olish, tinglovchining diqqatini ushlab turish kabi ko'nikmalar shakllantirilib, takomillashtirilib borilishi zarur.

Bu kabi mashg'ulotlarda faqat monologik nutq bilan cheklanmasdan, suhbat, bahslar tashkil etish, bahsda o'z fikrini bayon qilish va boshqalarning fikrini tinglash, ularga munosabat bildirish kabi ko'nikmalar shakllantirilishi kerak.

Inson ongining ishlashi tajribaga asoslanadi. Shuning uchun bolada qaysi ko'nikma hosil bo'lishi maqsad qilinsa, darslarda o'sha bo'yicha mashqlar muntazam tashkil qilinish kerak.

Og‘zaki nutqni tushunish, tahlil qila olish bilan birga bola o‘zi ham gapirishi, turli vaziyatlarda, turli janrlarda nutq yarata olishi zarur. Bunga darslar davomida ma’lum mavzuda taqdimotlar qilish, turli vaziyatlarda o‘z fikrini bayon etishi kerak. Bunda bolaning nutqini yo‘naltiruvchi savollar berish muhim.

Bolaga quyidagicha topshiriq berish mumkin:

Fotosuratlaringiz ichida sizga eng sevimlisi haqida gapirib bering.

Surat qayerda olingan?

Uni kim olgan?

U sizga nimani eslatadi?

Nima uchun aynan shu surat siz uchun qadrli?

Bolaga gapirish uchun mavzu berilyapti: *Fotosuratlaringiz ichida sizga eng sevimlisi haqida gapirib bering.*

Mazkur mavzuni gapirish jarayonida nimalarga e’tibor qaratilishi kerakligi alohida aytib o‘tilyapti:

Surat qayerda olingan?

Uni kim olgan?

U sizga nimani eslatadi?

Nima uchun aynan shu surat siz uchun qadrli?

Mavzu davomidan quyidagi savollarni berish mumkin:

• *Siz o‘zingiz surat olishni yaxshi ko‘rasizmi? Nima uchun?*

• *Inson hayotida suratlarning ahamiyati qanday deb o‘ylaysiz?*

• *Oxirgi vaqtda surat bilan bog‘liq odatlarda qanday o‘zgarishlar bo‘ldi?*

Bu shakldagi topshiriqlar bola avvaldan bilgan, ongida mavjud bo'lgan ma'lumot va unga nisbatan o'z munosabatini ifodalashga yordam beradi. Og'zaki nutqni rivojlantirish uchun albatta bola biladigan, bolaning kundalik hayotida muhim bo'lgan mavzular tanlanishi kerak. Boladan u bilgan mavzuni so'rash og'zaki nutqni rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Og'zaki nutqni rivojlantirish darslari uchun kun tartibida muhim bo'lgan mavzularni olish muhim. Bu bolaning ongida mavzuni faollashtirish uchun sarflanadigan vaqtni tejaydi, ya'ni darssiz ham bola shu mavzu doirasida ma'lumot olgan, ma'lum darajada fikrlab ko'rgan bo'ladi.

Umuman ona tili darslarida topshiriqlar bolaning lisoniy malakasiga mos tarzda tuzilishi kerak.

Yozma nutqni rivojlantirish. O'rta ta'limda qo'llanadigan yozma nutq shakllari asosan, bayon, diktant va inshodan iborat. Bayon va inshoda boladan ijodiylik talab qilinar ekan, u faqat badiiylik nuqtai nazaridan baholanadi. Mavzular ham asosan badiiy uslubga mos holda tanlanadi. Ma'lumki, badiiy matn uchun badiiy tafakkur zarur, badiiy tafakkurning asosida insonning individual hayotiy tajribasi yotadi, ya'ni ma'lum ruhiy holat hayotda kuzatilgan ma'lum predmet yo hodisa bilan assotsiatsiyalanadi. Tabiiyki, professional yozuvchi va maktab o'quvchisining o'rtasida yosh jihatdan, hayotiy tajriba jihatidan katta farq bor. Yozuvchi qo'llagan jumla va obrazlar har doim ham maktab o'quvchisi uchun tushunarli bo'lmasligi mumkin. Til ta'limidagi bu nomutanosiblik o'quvchi til malakasining rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi. Natijada, bola o'z mustaqil fikrini o'z so'zlarini bayon qilmay, odatda eshitgan tayyor jumladan foydalanishga harakat qiladi. Shu bilan bog'liq holda bola yozishga bo'lgan rag'batini yo'qotib qo'yishi yoki umuman paydo qilmasligi mumkin. Yozma nutqni rivojlantirish uchun tanlangan mashg'ulot mavzulari dars berilayotgan

vaqt uchun dolzarb va o'quvchi uchun qiziq bo'lishi kerak. Shunday mavzu tanlanishi kerakki, bola o'sha haqida fikr bildirish istagi kuchli bo'lsin. U xoh kecha bo'lib o'tgan futbol matchi bo'lsin yoki mashhur serial bo'lsin. Mazkur masalalarga bo'lgan qiziqishdan bolaning kognitiv rivojlanishini ta'minlash uchun samarali foydalanish mumkin.

Shuningdek, turli mavzu va uslubdagi matnlar yuzasidan yozma topshiriqlar bajarish o'quvchining yozma nutq haqidagi bilimi tasavvurlarini kengaytiradi. Bunday topshiriqlar matndan ma'lum kommunikativ vazifada qo'llangan so'z va so'z birikmalarini topish, ularning nima uchun qo'llanganligiga izoh berish, matn ichidan matnning bir butunligini ta'minlab turishga xizmat qiladigan vositalarni aniqlash, matn va uning boshqa muallif tomonidan yozilgan bayonini qiyoslash kabi mashqlar yozma nutqning charxlanishiga xizmat qiladi.

Yuqoridagilarni xulosalab shuni aytish mumkinki, har qanday dars psixolingvistik jarayondir, chunki bola unda til vositasida berilgan ma'lumotni dekodlaydi yoki o'z bilimini ifodalash uchun kodlaydi. Insonning har qanday kognitiv ko'nikmasi tajriba asosida shakllanadi. Mazkur xulosa sun'iy ong yaratishga urinishning dastlabki paytida vujudga kelgan. Olimlar hatto shaxmat o'ynashday o'ta mantiqiy jarayonda ham tajriba hal qiluvchi ahamiyatga egaligini qayd etganlar. Boshqacha aytganda, qoidani yodlash har doim ham uni amalda samarali qo'llashni ta'minlaydi degani emas. Insonning til malakalarini qanday namoyon qilishi vaziyat, tinglovchi, ruhiy holat, kayfiyat, taassub kabi omillar bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq ekan, nutq jarayonida bu omillarni va ularning ta'sirini farqlay olish nutqning nazorat qilinishini qoidalarga nisbatan yaxshiroq ta'minlaydi. Shuning uchun ham o'rta ta'limda ona tili darslari eshitib va o'qib tushunish, og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilishi kerak.

Mavzu uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Azimova I.A. O'zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy pertsepsiyasining psixolingvistik tadqiqi. Monografiya. Toshkent, 2020. B.19-24.

2. Murodova A. Eshitib qabul qilishda matnda ifodalangan ma'lumot dekodlanishining tajribaviy tadqiqi. *Global ta'lim va milliy metodika masalalari*. Ilmiy-anjuman materiallari. Toshkent, 2020. B. 179-184;

3. Murodova A. Ona tili ta'limida eshitib tushunish malakasining o'rni. *Til va adabiyot ta'limi* jurnali. Toshkent, 2019. # 7. B. 13-14.

4. Rustamova Sh. 12-13 yoshli bolalar nutqining sintaktik tahlili (ixtisoslashgan va oddiy maktab o'quvchilari misolida).// *Global ta'lim va milliy metodika masalalari*. Ilmiy-anjuman materiallari. Toshkent, 2020. B. 381.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Til o'qitishda to'rt lisoniy malakaning har biriga alohida e'tibor berish zarurati inson ongining qaysi jihati bilan bog'liq?

2. Eshitib tushunishda insonning qaysi sezgi a'zosi qanday signalni qabul qiladi?

3. O'qib tushunishda insonning qaysi sezgi a'zosi qanday signalni qabul qiladi?

4. Audio-kirish leksikoni nima? Uning eshitib tushunish malakasini rivojlantirishda qanday ahamiyati bor?

5. Vizual kirish leksikoni nima? Uning o'qib tushunish malakasini rivojlantirishda qanday ahamiyati bor?

6. Grafemik chiqish leksikoni nima? Uning yozma nutqni rivojlantirishda qanday ahamiyati bor?

7. Og'zaki chiqish leksikoni nima? Uning og'zaki nutqni rivojlantirishda qanday ahamiyati bor?

7-MAVZU: TIL TA'LIMI VA TIL STANDARTI MASALASI

Standart til masalasi lingvodidaktikadagi markaziy masalalardan biridir. Til og'zaki ko'rinishda insonlararo mu-loqotni ta'minlasi, yozma ko'rinishdagi til bir millatning madaniyati, tarixi, asrlar davomida yiqqan tajribasini av-lodlarga yetkazishga xizmat qiladi. Buning samarali amal-ga oshishi uchun esa tilning umum tomonidan qabul qilin-gan, bir millat doirasidagi turli sheva vakillari uchun birday tushunarli bo'lgan me'yorlashtirilgan shakli zarurdir.

Hozirga qadar o'zbek adabiy tili tushunchasi o'zbek tilining me'yorlashtirilgan shakli sifatida o'qitib kelinadi. O'rta maktabdagi va oliy ta'limdagi ona tili va hozirgi o'zbek adabiy tili darsliklari ko'zdan kechirilar ekan, ular-da grammatik qoidalarni tushuntirish uchun misollar asosan badiiy adabiyotdan olinganligini ko'ramiz. Xuddi shu-ningdek, bolalarga grammatik qoidani o'zlashtirish uchun berilgan mashqlardagi gaplar ham asosan badiiy asarlardan tanlab olinadi. O'rta maktab davrida bolalarga beriladigan insholarga qo'yiladigan asosiy talab ham badiiylikdir. Bu holat ona tili ta'limi uning faqat bir shakli – badiiy uslub bi-lan chegaralanib qolganligini ko'rsatadi. Vaholanki, inson kundalik hayoti davomida tilning badiiy uslubidan ko'ra boshqa uslublarini qo'llashga ko'proq ehtiyoj sezadi.

Ma'lumki, o'zbek tilshunosligi rus tilshunosligi ta'siri ostida shakllangan, "o'zbek adabiy tili" tushunchasi ham "sovremenniy russkiy literaturniy yazik"ning aynan tar-jimasidir. Mantiqan olganda "o'zbek adabiy tili" o'zbek til-ining barcha ko'rinishlari uchun namuna vazifasini o'tashi lozim bo'lsa-da, o'zbek tili bo'yicha qilingan ko'pgina tad-qiqotlar uning faqat bir shakli – badiiy adabiyot bilan chek-lanib qolgan. G'arb davlatlarida tilning me'yorlashtirilgan

ko'rinishi sifatida standart til tushunchasi qo'llanadi: "Standard English", "Español estándar", "Le français standard" kabi. Bu atamaning afzalligi unda xalq o'rganishi va bilishi kerak bo'lgan til faqat badiiy adabiyot bilan cheklanmasligiga urg'u beriladi. Filologiya fanlari doktori, professor Aziz Jo'rayevning "Standart o'zbek tili" tadqiqotida o'zbek tilshunosligida birinchi marta standart o'zbek tili tushunchasi qo'llanadi va uning zarurati ilmiy jihatdan asoslanaadi: "Standart o'zbek tili o'zbek tilining barcha ontologik ko'rinishlari uchun ideal og'zaki va yozma lingvodidaktik namunadir. U o'qimishli (o'zbeklarning... ko'p variantli nutqiy hulqida yetakchilik qiladi"²⁰. Mazkur risola olimning "Standart o'zbek tili" deb nomlangan yakunlanmagan tadqiqoti bo'lib, muallif rejalashtirgan tadqiqotning birinchi bobidir. Olim standart o'zbek tili tushunchasini ilmiy taomilga kiritar ekan, o'zbek adabiy tili va standart o'zbek tilining o'zaro kesishgan va farqli jihatlarini nazariy va amaliy jihatdan asoslaydi. Standart o'zbek tili ham o'zbek tilining mavjud yashash shaklidir. Uning shakllanishi o'tgan asrning 30-yillarida o'zbek tilining ta'lim tizimiga kirib kelishi va fan sifatida o'qitila boshlashi bilan bog'liq. Standart o'zbek tilining tarixiy taraqqiyoti sobiq ittifoq davrida yuritilgan siyosat bilan bevosita bog'liqdir. Xususan, ruslashtirish siyosati o'zbek tilining ham ilmiy tadqiqiga, ham ona tili sifatida o'qitilishiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi, bosim o'tkazdi. Rus tilshunosligidagi an'analarga xos tarzda ona tilini o'qitishda o'quvchining nutqi badiiy matn orqali me'yorga solishga harakat qilindi. Ma'lumki, badiiy matn uchun badiiy tafakkur zarur, badiiy tafakkurning asosida insonning individual hayotiy tajribasi yotadi, ya'ni ma'lum ruhiy holat hayotda kuzatilgan ma'lum predmet yo hodisa bilan assotsiatsiyalanadi. Tabiiyki, professional yozuvchi

²⁰ Jo'rayev A. Standart o'zbek tili. Toshkent, 2017. B.8.

va maktab o'quvchisining o'rtasida yosh jihatdan, hayotiy tajriba jihatidan katta farq bor. Yozuvchi qo'llagan jumla va obrazlar har doim ham maktab o'quvchisi uchun tushunarli bo'lmasligi mumkin. Til ta'limidagi bu nomutanosiblik o'quvchi til malakasining rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi. Shuningdek, mazkur tadqiqotda ta'kidlanganidek, "barcha ona tili darsliklarida emotiv leksika miqdor jihatidan kognitiv leksikadan ustun". O'quvchining ona tili vositasida mustaqil fikrlashi va o'z fikrini bayon qilishi uchun kognitiv leksikani o'zlashtirishi muhimroqdir. Buning uchun "maorif tilini... alohida ontologik birlik sifatida tan olish zarur. Bu birlikni... "standart o'zbek tili" yoki "o'zbek tilining lingvodidaktik namunasi" deb atash ma'qul"²¹.

Olim yozma o'zbek tili va yozma o'zbek badiiy tilining umumiy va farqli jihatlari ham e'tibor qaratadi. O'zbek tilining mazkur ikkala shakli o'rtasidagi asosiy farq standart o'zbek tilining davlat va jamoatchilik tomonidan nazorat qilinadigan rasmiy nutq modeli, badiiy til esa norasmiy nutq modeli ekanligida deb ko'rsatiladi. Shuningdek, o'zbek yozma badiiy tilida standartlashgan va standartlashmagan lisoniy vositalarning qo'llanishi faktik materiallar bilan ko'rsatib beriladi. Olim ularni "badiiy orfogramma" deb ataydi va unga standart orfogrammani qarama-qarshi qo'yadi.

Tadqiqotda standart o'zbek tili va o'zbek shevalari munosabatiga alohida to'xtalinadi. Standart o'zbek tili va o'zbek shevalari o'rtasidagi chegara qat'iy belgilab beriladi va standart o'zbek tili uchun birorta sheva asos bo'lib xizmat qilmagani ilmiy jihatdan asoslanadi. Shu bilan birga o'zbek tilining barcha ontologik shakllari kesishgani kabi standart o'zbek tili va o'zbek shevalari ham o'zaro kesishishi, shuningdek, o'zbek shahar shevalari muhitining standart o'zbek tili uchun ijtimoiy ahamiyati kattaligi ta'kidlanadi.

²¹ O'sha manba. B.12.

Muallif standart o'zbek tili va ommaviy axborot vositalari tili, standart o'zbek tili va o'zbek so'zlashuv nutqi masalalaridagi asosiy nuqtalarni yoritadi. Xususan, ommaviy axborot vositalari tilining bugungi holati "oralik ontologik tabiatga ega" ekanligi, u hali to'la shakllanmagan standart o'zbek tili va yozma badiiy o'zbek tili orasida yashab ke- layotganligi aytiladi. O'zbek so'zlashuv nutqi esa o'zbek shevalarining kuchli ta'siri ostida ekanligiga e'tibor qarati- ladi. Shu o'rinda o'zbek tilshunosligida o'zbek so'zlashuv nutqining o'rganilishi shu vaqtga qadar badiiy adabiyot na- munalari asosida amalga oshirilganligi ko'rsatiladi. Olim haqli ravishda bunday matnlar og'zaki nutq emas, balki "og'zaki nutqning maqsadli taqlid bilan qayta ishlangan va yozma shaklga keltirilgan badiiy namunalari hisoblanishi kerak" deydi, chunki so'zlashuv nutqi "yozuvga ega emas, uni jonli talaffuzsiz (ohang, nutq tempi va boshqalar), shun- ingdek, paralingvistik vositalarsiz tasavvur etib bo'lmay- di"²².

Standart o'zbek tili o'zbek tilining mavjud yashash shakli hisoblansa-da, unga bo'lgan ijtimoiy buyurtmaning yuqoriligi sabab doimiy ravishda standartlashtirilishi zarur, chunki u jamiyat bilan, uning o'sib borayotgan ehtiyojlari bilan bevosita bog'liq. Muallif bu o'rinda aynan nimalarga e'tibor qaratish zarurligini aniq belgilab beradi. Jumladan, standart o'zbek tili va o'zbek tilining boshqa ontologik shakllari bilan o'zaro munosabatini tadqiq qilish, gramma- tik va leksikografik ishlarning tanqidiy tahliliga tayanib, standart tilning yangi bosqichdagi imkoniyatlarini qayd etish, standart tilning yangi bosqichdagi imkoniyatlarini o'zbek tili ta'limining turli ko'rinishlariga olib kirish kabi vazifalar o'zbek tilini standartlashtirishda o'ta muhimdir.

Mavzu yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar

²² O'sha manba. B.48.

1. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. Toshkent, 1997.

2. Jo'rayev A. Standart o'zbek tili. Toshkent, 2017.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Lingvodidaktik namuna nima?

2. Til ta'limida alifbo masalasining qanday ahamiyati bor?

3. Alifboning o'zgartirilishi tilning ijtimoiy va ma'rifiy mavqeiga qanday ta'sir qiladi?

4. Til ta'limida tilning qaysi ko'rishiga ko'proq urg'i berilishi kerak?

5. Til standarti tushunchasining adabiy me'yordan qanday farqi bor?

8-MAVZU: LINGVISTIK BILIMNI KONTEKSTDA BERISH

Hozirgi kunda ona tili maktabda grammatik ilm sifatida o'rgatiladi, unda tilshunoslikka oid tushunchalar o'rgatib boriladi. Tilning amaliy tarafi, xususan, fikrni to'g'ri va samarali ifodalash, so'zlardan kerakli o'rinda samarali foydalanish, matnni to'g'ri tushunish kabi ko'nikmalarga darslar davomida e'tibor qaratilmaydi.

Filologiya fanlari doktori Aziz Jo'raev qayd etib o'tganidek, umumiy o'rta ta'limdagi ona tili va hozirgi o'zbek adabiy tili kurslari doirasida tilga oid qonun-qoidalar asosan badiiy adabiyotdan keltirilgan misollar bilan tushuntiriladi. Vaholanki, til faqat badiiy uslubdan iborat emas. Tilning badiiy bo'lmagan uslublari inson kundalik hayotida ko'proq zarur bo'lsa-da, qolgan uslublarning maktabdagi ta'lim davomida e'tibordan chetda qoladi.

Oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida ham ona tilining grammatik qonun-qoidalariga urg'u berilishi ortidan maktabdagi ona tili ta'limi jarayonida o'quvchining nutqiy ko'nikmalari e'tibordan chetda qoladi. Xususan, o'quvchi ergash gapli qo'shma gapning o'n to'rt xil turining qoidalarini yoddan aytib berishi mumkin, biroq shu turdagi gaplardan qachon, qanday nutqiy vaziyatda foydalanish o'rinli bo'lishini bilmaydi.

O'quvchi maktab davrida diktantdan tashqari amalga oshiradigan yozma ishlar, asosan, bayon va insho shaklida bo'ladi. Ularni baholashda o'quvchi matnning badiiyligi asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Yozma matn yaratish ko'nikmasi ham faqat badiiy matn doirasida cheklanib qoladi.

Insonning til malakasi og'zaki nutqni tushunish, yozma nutqni tushunish, fikrini og'zaki va yozma ifodalash orqali shakllanishi ilmiy jihatdan isbotlangan. Biroq ona tili o'qitishda bu to'rt xil malakaga yetarli darajada e'tibor qaratilmaydi. Bugungi kunda o'zbek tilini ona tili sifatida qo'llanish doirasida kuzatilayotgan kamchiliklar ona tili ta'limida tildan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirishga urg'u berilmaganligi bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham ona tildan savodxonlik darajasini oshirish bo'yicha malaka oshirish kurslari dasturlari va o'quv materiallarini ishlab chiqishda kommunikativ yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Kommunikativ yondashuvning mohiyati real vaziyatda nutqni tushunish, o'z fikrini to'g'ri ifodalashga o'rgatishdir. Shuning uchun har bir mavzu uchun alohida vaziyat beriladi va shu vaziyatda nutq vositasida masalani hal qilish talab qilinadi.

Til qobiliyatini inson hayotining farovonligini ta'minlashga xizmat qiladigan boshqa qobiliyatlardan ayri tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ham uni rivojlantirish-

da inson hayotida uchraydigan vaziyatlardan foydalanish muhim. Bu, birinchidan, o'rganuvchida dars jarayoniga nisbatan qiziqish va rag'batni kuchaytiradi; ikkinchidan, unda foydalanilgan nutq vaziyatning ichida bo'lgani uchun insonning xotirasida yaxshiroq saqlanadi.

Grammatik qoidani avval berib keyin mashq bajarish usuli shuncha vaqtdan beri ona tilini o'qitishda qo'llab kelingan. Uning asosiy kamchiligi amaliyotga yetarli darajada bog'lanmaganligidir. Mazkur usulda mavzuni o'qigan bola nazariy jihatdan shunday ekanligini biladi, ammo shu qoida qaysi vaziyatlarda qo'llanishi haqida tasavvurga ega bo'lmaydi. Kommunikativ yondashuvda esa tilning mu-loqot vositasi sifatidagi vazifasi birinchi planga qo'yiladi. Ma'lum vaziyatda qanday gapirish to'g'ri bo'ladi, ya'ni qanday ifoda yordamida fikrni bexato yetkazish mumkin – shu masalani hal qilish orqali til qonuniyatlarini tushuntiradi. O'rganuvchiga ana shu bexato shakl asosida tilga oid qanday qoida borligi shu qoidaning bir necha xil vaziyatda aks etishi orqali tushuntiriladi.

Kommunikativ yondashuvga asoslangan darslarda faqat yozma matn bilan cheklanib qolinmaydi. Tilning og'zaki va yozma shaklidan darslar davomida baravar foydalaniladi. Mavjud an'anaga ko'ra ona tili o'qitishda yozma matn asosiy o'rinda turadi, og'zaki nutqqa alohida e'tibor qaratilmaydi. Vaholanki, insonning birlamchi til ko'nikmasi og'zaki nutqdir. Og'zaki nutqni rivojlantirish tilning qolgan shakllarini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Yozma nutq bilan ko'p ishlash og'zaki nutqni o'z-o'zidan rivojlanib qolishiga olib kelmaydi, chunki yozma nutq va og'zaki nutq mazmun jihatidan bir nuqtaga birlashsa-da, ularning amalga oshish jarayoni inson ongida boshqa-boshqa mexanizmning ishlashi orqali ta'minlanadi. Shuning uchun ularning har biriga alohida e'tibor berish zarur.

Shuningdek, og‘zaki va yozma nutqni tushunish masalasiga alohida e‘tibor qaratiladi. Nutqni tushunish jarayoni murakkab jarayon bo‘lib, bir necha darajadan iborat bo‘ladi. Bir nutqni bir davrada hamma bir xil eshitsu-da, har bir tinglovchi uni turli darajada tushunadi. Nutqni tushunish jarayoni alohida so‘zlarning ma‘nosini tushunish, gapning ma‘lum qismini tushunish, matn mazmunining ma‘lum qismini tushunish kabi bosqichlardan iborat bo‘ladi. Nutqning qanchalik tushunilishi diqqatni ushlab turish ko‘nikmasi bilan bog‘liqdir. Mazkur ko‘nikmani turli mashqlar yordamida shakllantirish mumkin. Shu vaqtgacha ona tili va adabiyot darslarida matn ustida ishlash bo‘yicha mashqlarda matn mazmunini to‘liq ochish nazarda tutilmagan. Ona tili darslarida matn, odatda, ma‘lum til qoidasining ifodalanishini topish (masalan, ot turkumiga oid so‘zlarni toping yoki ega bilan kesimni toping) maqsadida berilgan bo‘lsa, adabiyot darslarida matnda ifodalangan badiiy jihatlarga urg‘u berilgan. Kommunikativ yondashuv asosidagi mashqlar matnning mazmunini anglashga yo‘naltiriladi, so‘zlar va gaplar mazmunni ifodalashda aynan qanday vazifani bajarayotganiga e‘tibor qaratiladi.

Og‘zaki nutqni turli ko‘rinishlarda – monolog, dialog, suhbat, bahs-munozara shakllarida to‘g‘ri tushunish ko‘nikmasiga e‘tibor qaratiladi.

Og‘zaki nutqni tushunishda og‘zaki nutqning turli ko‘rinishlarini hisobga olish insonning tushunish qobiliyatini charxlaydi: tinglovchi nutqning turli qirralariga e‘tibor qilinishni o‘rganadi. Tilga oid qoidalar zaruriy holatlarda izohlab o‘tiladi va amalda qo‘llanishi birinchi planda bo‘lgani uchun qoidani o‘zlashtirish samaraliroq bo‘ladi.

Tilga oid har qanday qoida yuqorida aytib o‘tilgan malakalarni rivojlantiruvchi mashqlar ichiga singdirilishi kerak.

Mavzu yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Kumaravadivelu B. (2003). Contextualizing linguistic input. // *Beyond Methods: Macrostrategies for Language Teaching*. Yale University Press. 2003. Pp.204-224.
2. Swan, M. (2000) Seven bad reasons for teaching grammar and two good ones. // *Methodology in Language Teaching*. Cambridge University Press. Pp.148-152.

Mavzuni mustahkamlash uchun topshiriq

Quyida 2-sinf uchun ona tili fanining “Harfiy birikmalar”, “Sanoq va tartibni bildirgan so‘zlar”, “Bo‘g‘in ko‘chirish” mavzulari uchun ishlangan dars materiallari berilgan. Unda grammatik ma‘lumotlarni bir kontekstda berish uchun “Mening mahallam”, “Mening oilam”, “O‘zbekistonning noyob tabiati” mavzulari tanlangan. Har bir mavzu o‘rta maktabda o‘tiladigan to‘rtta dars vaqtiga mo‘ljallangan. Materialni ko‘rib chiqing va quyidagi savollarga javob bering:

1. Berilgan materiallar bolaga tilga oid nimalarni bolalarga o‘rgatyapti?
2. Nutqiy mavzuning hamma mashq va topshiriqlarda aks etishi o‘rganish jarayoniga qanday ta‘sir qiladi?
3. Har bir mashq mavzuning o‘zlashtirishi uchun qanday xizmat qilyapti?

MENING MAHALLAM

Harfiy birikmalar

1. Suhbatni o‘qing. Savollarga javob bering.

Temur: Buvi, men ona tilidan “Mening mahallam” mavzusida insho yozishim kerak. Mahallamizning nomi nega “Kamolon”? Bu joyda avval “Kamol” degan kishi yashaganmi?

Buvi: Yo'q. "Kamolon" – mahallamizning hozirgi nomi. Avval "Kamongaron" deb yuritilgan.

Temur: "Kamongaron"?! Kamon bilan bog'liqmi?

Buvi: Ha, kamongaron – forscha so'z. Kamon nimaligini bilasan. "-gar" qo'shimchasi o'zimizning "-chi" qo'shimchasi, "-on" esa "-lar" qo'shimchasiga to'g'ri keladi.

Temur: Demak, "kamonchilar" degani, shundaymi?

Buvi: Ha. Toshkent qadimda o'zining kamonlari bilan mashhur bo'lgan. Mahallamiz joylashgan yerda kamon yasaydigan ustalar yashagan. "Kamongaron" so'zi keyinchalik tilimizga moslashib "kamolon"ga aylangan.

1) Siz yashaydigan mahallaning nomi nima?

2) Mahallangizning nomi nimani anglatadi?

2. Bo'sh o'rinlarni kerakli harfiy birikmalar bilan to'ldiring.

Namuna:

_____er – sher

_____ox

Qo_____iq

Ma_____ina

To_____

Oqqu_____

_____umoi

_____ana

So_____iq

San_____qi

O_____qi

So_____

De_____iz

Naha_____

Cha_____

3. Matnni o'qing. Unda berilgan ma'lumotlarga asosan <https://yandex.uz/maps/> <https://2gis.uz/tashkent> <https://www.google.com/maps> internet sahifalarining biridan "Kamolon" mahallasini topishga harakat qiling.

Kamolon — Beshyog'och dahasidagi mahalla. Darxon, Eshonguzar, Yangi mahalla, Samarqand darvoza, Guliston mahallalari bilan chegaradosh bo'lgan. Bu mahallada Xo'ja A'lambardor maqbarasi va qabristoni bor. Asli «Kamongaron» ya'ni «Kamonsozlar» nomi keyinchalik og'zaki tilimizda Kamolon talaffuzida yetib kelgan.

Bugun tarixiy mahalladan Kamolon, Kattabog', O'zgarish, Yangiobod, Qozirobod, Oftob, Gulxaniy, Guliston, Kirki, Zomin, Darxon, Yorish, Atirgul, Lola, Terak, Chaqmoq, Said Kamolxon, Oqoltin, Tutzor ko'chalari o'tadi. Mahallaning Bunyodkor shohko'chasi, Qoratosh ko'chasi va anhor bilan tutash hududlari yaqinida ko'pqavatli binolar, turarjoylar va turli savdo-ko'ngilochar obyektlari qurilgan.

4. Matnda berilgan ma'lumot asosida daha, mahalla va ko'cha nomlarini jadvalning tegishli ustunlariga yozing.

Daha	Mahalla	Ko'cha

5. Xaritaga qarab quyidagi topshiriqlarni bajaring.

a. Darxon ko'chasi qaysi ko'chalar bilan kesishishini toping.

b. Katta bog' 4-tor ko'chasi va Katta bog' 5-tor ko'chasi janub tomonda qaysi ko'chaga tutashadi?

c. Kamolon ko'chasiga janub tomondan qaysi ko'chalar tutashadi?

d. Xaritadan katta va kichik ko'chalarni toping. Ularning nomlanishiga e'tibor qiling.

Katta bog' ko'chasi hamda Katta bog' 1-tor ko'chasi, Katta bog' 2-tor ko'chasi, Katta bog' 3-tor ko'chasi, Katta bog' 4-tor ko'chasi, Katta bog' 5-tor ko'chasi, Katta bog' 6-tor ko'chasi, Katta bog' 7-tor ko'chalarini xaritadan ko'rsating.

6. Uyga vazifa. Oldingi mashqda berilgan matndan harfiy birikma qo'llangan so'zlarni ko'chirib yozing.

7. Matnni o'qing. Tushirib qoldirilgan harf birikmalarini o'rniga qo'ying.

To__kent __ahri 2200 yil avval Chir__iq, Salor, Qorasuv bo'ylarida paydo bo'lgan. U vaqtda Choch deb atalgan. Cho__ nomi "tosh" ma'nosini anglatgan. Toshkentning hozirgi nomi ham "To__ __ahar" deganidir.

Shahar atrofida ke__ ekinzorlar, qishloqlar, dehqonlarni__ qo'rg'on va bog'-rog'lari bo'lgan. Arab tilida yozilgan kitoblarda bu __ahar Chochni__ poytaxti — „Madinat ash Shosh“ (Sho__ shahri) deb atalgan. Arab tilida "ch" tovushi bo'lmaganligi uchun Choch emas, Shosh deb aytilgan.

Choch hunarmandlari metallardan mehnat qurollari, yarog'-aslahalar, zeb-ziynat va ro'zg'or buyumlari, turli taqin__oqlar yasaganlar. Shoshda yasalgan kamon o'__a vaqtlarda butun Sharqda «Kamoni Shoshiy»

nomi bilan mashhur bo'lib, uni__ uzoqqa otilishi va nishonga aniq tegishi aytib o'tilgan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, buyuk sohibqiron Amir Temur To__ kentda bo'lganida «Kamolon» mahallasida yasalgan kamonlarni__ puxtaligiga tan berib, o'z qo'__ inlarini u bilan ta'minlashga buyruq bergan.

8. Oldingi mashqda berilgan matn asosida savollarga javob bering.

1. Toshkent tarixda qanday nomlangan?
2. "Toshkent" so'zining ma'nosi qanday?
3. Arablar Toshkent shahrini qanday ataganlar? Nima uchun?
4. "Kamoni Shoshiy" nima?
5. "Kamolon" so'zining tarixiy shakli qanday bo'lgan va u so'z qanday ma'noni anglatgan?

9. She'rni o'qing.

TURP

Menga tekkan choq

Og'zing,

Tiniq bo'lar

Ovozing.

So'ng ochilar

Ishtahang

Bo'p ketmasang, bas,

Nahang

Po'stim

Osmon rangida,

Qishning

Sovuq tongidan

Simiraman

Yorug'lik,

O'zim-

Oltiariqlik.

Anvar Obidjon

10. Uyga vazifa. She'rdagi ng harf birikmasi ishtirok etgan so'zlarni ko'chiring.

11. Turpning foydali xususiyatlari haqidagi maslahatlarni o'qing.

1-maslahat

Kattaroq turpning ichini pichoqda o'yib olasiz. Hosil bo'lgan chuqurchaga asal solasiz. Xona haroratida biror soat turgach, turp sharbat ajrata boshlaydi. Shu sharbatdan tez-tez ichib tursangiz, yo'taldan xalos bo'lasiz.

2-maslahat

Agar ishtahangiz yo'q bo'lsa, har kungi taomnomangizga, albatta, yashil turpni qo'shing.

12. Turp haqidagi she'rdan foydali maslahatlar-ga to'g'ri keladigan joyini toping va quyidagi jad-valga ko'chirib yozing.

Maslahatlar	She'r
1-maslahat	
2-maslahat	

13. Uyga vazifa. Mus'haf va mas'h so'zlarining ma'nosini o'zbek tilining izohli lug'atidan qidirib toping.

MEN SEVGAN KASB

SANOQ VA TARTIBNI BILDIRGAN SO'ZLAR

1. Suhbatni o'qing. Savollarga javob bering.

Azizbek: Oyijon siz nima uchun o'qituvchi bo'lgansiz?

Sohiba opa: Men o'quvchi bo'lgan paytlarimda, ko'p o'qituvchilarimga havas qilar edim.

Azizbek: Oyijon kasbingiz o'zingizga yoqadimi?

Sohiba opa: Albatta, bolajonim. Shu kasb tufayli meni hamma hurmat qiladi.

Azizbek: Oyijon men ham katta bo'lganimda sizdek matematika o'qituvchisi bo'lsam, meni ham hamma hurmat qiladimi?

Sohiba opa: Sen o'zing uchun eng qiziq kasbni tanlashing kerak. O'shandagina seni hamma hurmat qiladi.

Azizbek: Oyijon, men matematikadan ham, ona tilidan ham ko'ra tasviriy san'at darsini ko'proq yaxshi ko'raman. Ustozim har doim, Azizbek sinfimizning bo'lajak rassomi deydi.

Sohiba opa: Ana ko'rdingmi, sen o'zing rasm chizishni yaxshi ko'rasan, juda zo'r rasm chizasan, demak sen rassom bo'lishing kerak!

Azizbek: Ha, men rassom bo'laman, oyijon!

1. Har bir kishi nima uchun o'zi sevgan kasbni tanlashi kerak deb o'ylaysiz?

2. Siz kelajakda qaysi kasb egasi bo'lmoqchisiz?

Buyumlarning sanog'ini ifodalash uchun –ta, “dona”, odamlarning sanog'ini ifodalash uchun “na-far”, suyuqliklarning miqdorini ifodalash uchun “litr”, daraxtlarning sanog'i uchun “tup”, ko'katlar, o'simliklar uchun “bog” ishlatiladi

2. Nuqtalar o'rnini kerakli so'z yoki qo'shimchalar bilan to'ldiring.

2 kishi 1 sut 3 ko'chat

2 yong'oq 4 ko'kat 5 yog'

3. She'ni o'qing

Menda 1 ta orzu bor
To'xtang, 1 emas, 2 ta
Bo'lsam deyman shifokor,
Hamda rassom eng puxta.

Birinchisi uchun shart
Menga bahodir yurak,
Ranglarni to'g'ri tanlash
Ikkinchisiga kerak.

4. Uyga vazifa: She'rdagi tartibni va sanoqni bildirgan so'zlar hamda qo'shimchalarni toping.

Tartibni bildirgan so'zlar	Sanoqni bildirgan so'zlar

5. Nuqtalar o'rniga kerakli kasblarni yozing .

1. bizning sog'ligimiz uchun qayg'uradilar
2. turli kiyimlarning rasmini chizadilar. esa ular chizgan rasmlar asosida kiyim tikadilar.
3. ajoyib she'rlar yozishadi. esa ular yozgan she'rlarni qo'shiq qilib kuylaydilar.
4. Bizga bilim beradigan kishilar -
5. Vatanimiz chegaralarini himoya qilishadi.
6. kuy bastalaydilar.
7. Har xil yangiliklarni bizga yetkazishadi.
8. turli filmlarda rol ijro etishadi.
9. Fazoni, koinotni o'rganadiganlar -
10. samolyotlarni boshqarishadi.

6. Matnni o'qing

Uzoq o'tgan zamonda raqamlar saltanatida, chetlari hoshiyali, yuzlari oppoq katak daftarda o'n dona raqam alohida-alohida, ajoyib-u g'aroyib hayot kechirishardi.

1 raqamlar ichida to'ng'ich, o'zidan keyingilarga yo'lboshchi, orqasidan ukasi - ishyoqmas va dangasa 2 ni ergashtirib yurardi.

3 esa 2 bilan o'rtoq. Har doim akasi 4ning "yaxshi o'qi" degan so'zlaridan xafa bo'lib yurardi.

5 barchaga yoqimtoy a'lochilar daftarida erkatoiy kataklarning to'rida savlat to'kib turardi.

7 belbog'ini beliga bog'lab, hafta kunlariga bosh-u qosh bo'lib, ularning' tartib bilan kun almashishini nazorat qilib turar edi.

7. 6-mashqda ta'rifsiz qolgan sonlarga siz ta'rif yozing

8. Matnni o'qing.

-oh nol, nol.....

Bir kuni nol ko'ptokdek dumalab, sakab-sakrab, raqamlar ichida uzun bo'yli -1 yashaydigan katakka kutilmagan mehmondek tushib qolibdi. Shunday qilib u 1 bilan ahil yashay boshlabdi.

Sanoq sonlar shaharchasida ikki do'st – 1 va 0 dan 10 lar, 100 lar, 1000 lar...hosil bo'ladi. Barcha raqamlar kabi 1lar ham 0 lar tufayli harakatga kelibdi. Shu bois raqamlar she'r to'qishibdi;

“kimki nolsiz –oyoq qo'lsiz”

(„Osmondagi bolalik” kitobidan)

9. Uyga vazifa: 0 ishtirok etgan raqamlarga sanoqni bildiruvchi so'zlarni qo'shing. Ulardan foydalanib gaplar yozing.

Namuna: 100 dona qalam

10. Kasblarga mos harakatni belgilang.

Shifokor rasm chizadi

Rassom mashina haydaydi

O'qituvchi Samolyot boshqaradi

Fazogir davolaydi

Dizayner ta'lim beradi

Shofyor kiyim modelini yaratadi

Uchuvchi fazoni o'rganadi

11.Savollarga javob toping va yozing

1. Siz kelajakda kim bo'lmoqchisiz?
2. Siz qaysi fanlarni sevib o'qiyasiz?
3. Siz tanlagan kasbni egallash uchun qaysi fanlarni yaxshi o'qish kerak?
- 4.Siz qaysi musiqani yoqtirasiz,bu musiqani yozgan kishi qaysi kasb egasi?

12.Topishmoqli she'rning javobini toping

To'planib o'n o'g'il qiz:

Mezbon- mehmon o'ynaymiz,-

Deyishar – Sobir, sana,

Adashib ketma yana.

Toq sonlar bo'lar mezbon

Juft sonlar – aziz mehmon.

Sobir sanar: Ko'ring-chi,

Nodir bo'ldi birinchi.

Ikki – singlim Durdona

Uchinchisan, Guldona.

To'rtsan, Dilshod, Lola – besh

Dildor-olti, yeti – Esh .

Sakkizinchi sen, Gulqiz,

Ahmadullo-chi to'qqiz.

Iya, o'n yo'q-ku, qarang

Topmas Sobir, bosh – garang

O'rtoqlari kulishar:

Boshqa sana – deyishar.

Yordam bering siz endi,

Chiqmagan o'n kim endi?

13. Uyga vazifa: oldini mashqda berilgan she'r-dagi tartib sonlarni topib yozing.

**14. Berilgan gaplardagi xatolarni toping.
To'g'rilab yozing.**

1. Nigorada 2 litr olma bor.
2. Bozordan 3 tup ko'kat keltirdik.
3. Bog'ga 4 bog' ko'chat o'tqazishdi.
4. Sinfimizdagi o'quvchilarning 13 donasi qizlar.
5. Qo'shnimiznikidan 1 kg sut olib chiqdik.
6. Menda 6 nafar olma bor.

O'ZBEKISTONNING NOYOB TABIATI

Bo'g'in ko'chirish qoidalari

1. Suhbatni o'qing. Savollarga javob bering.

Temur: Sherzod, sen O'zbekiston qanaqa joyda joylashganini bilasanmi?

Sherzod: Dadam: bizning O'zbekiston barcha okeanlardan uzoqda joylashgan- deb aytganlar.

Temur: Aytchi, okean o'zi nima?

Sherzod: Albatta, okean- bu yerimizning suv bilan qoplangan qismi.

Temur: To'g'ri! O'zbekistonning havosi qanaqa?

Sherzod: O'rtoqlarim bilan qishda qorbo'ron o'ynash uchun qor yog'ishini kutamiz. Lekin hech yog'maydi. Yog'sa ham, tezda erib ketadi. Oyim doim yurtimiz havosi quruq deydilar. Quruq degani, qor-yomg'ir kam yog'adi degani-da!

Temur: Qoyil, O'zbekistonning tabiati haqida men o'ylagandan ko'ra yaxshiroq bilarkansan?

- 1) O'zingiz yashayotgan joyning tabiati haqida yana nimalar bilasiz?
- 2) Siz boshqa biror yurtning tabiati haqida ham nima bilasizmi?

2. She'ni o'qing. So'zlarni bo'g'inga ajratib ko'chiring.

KUMUSH UY

Ipak qurti
Uy qurdi.
Sof kumushdan
G'isht urdi.

Qurib bo'lib
Qarasa.
Yo'qmish
Eshik-deraza.

Anvar Obidjon

3. Matnni o'qing²³. Savollarga javob bering.

Navoiy shahrida ilk bor uzum sayli o'tkazildi. Sayl Navoiydagi "Amfiteatr" *majmuasidagi bog'da* bo'lib o'tdi. Ushbu saylda mayiz hamda uzumdan tayyorlangan turli mahsulotlar ko'rgazmasi, uzum *shinnisi* va murabbolar, poliz mahsulotlari hamda mevalar ko'rgazmasi bo'lib o'tdi.

Uzum sayliga bag'ishlangan *rasmlar* tanlovi ham o'tkazildi. Shuningdek, milliy taomlarimizdan milliy palov, sofi osh, tandir *kabob* ham *tayyorlandi*. Xonandalar uzumchilik haqida *qo'shiqlar* kuyladi.

Ushbu loyihaning asosiy maqsadi uzumlarimizni *boshqa* davlatlarga yanada ko'proq sotish. Uzum saylida Qiziltepa, Xatirchi, Nurota, Navbahor, Karmana va Konimex tumanlaridan uzumchilar qatnashdi.

²³ Matn kun.uz internet sahifasidagi xabar asosida tayyorlangan. <https://kun.uz/uz/news/2019/08/29/navoiyda-ilk-bor-uzum-sayli-otkazildi-fotolar?q=%2Fnews%2F2019%2F08%2F29%2Fnavoiyda-ilk-bor-uzum-sayli-otkazildi-fotolar>

U Maydonga kirgan inson o'zini xuddi uzumzorda yurgandek his qiladi. Uzum saylida o'n mingdan ortiq aholi qatnashgan bo'lsa, Turkiya davlatidan 40 nafariga yaqin mehmonlar tashrif *buyurdi*.

Ushbu saylda *arzonlashtirilgan* meva, poliz mahsulotlari hamda go'sht savdosi ham bo'lib o'tdi.

Navoiydagi uzum sayli nima maqsadda o'tkazilibdi?

Uzum saylida nimalar namoyish qilindi?

Siz bunday sayllar nima uchun o'tkazilishi kerak deb o'ylaysiz?

4. Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarni bo'g'inlarga ajratib yozing.

5. Bo'g'inlarning tartibini o'zgartirib so'zlar hosil qiling.

1. tor-trak, 2. li-za-ma, 3. farq-be , 4. qi-chi-o'-tuv, 5. la-o-i

6. be-o'z-ton-kis, 7. la-mam-kat, 8. lik-gi-yan, 9. at-ta-bi

Ayrim bo'g'inlar tarkibida ikkita undosh yonma-yon keladi. Ular bo'g'inga ajratilmaydi. Masalan: *baxt-li, qadr-li, trak-tor*

6. Matnni o'qing. Bo'g'inga noto'ri ko'chirilgan so'zlar aslida qanday shaklda bo'g'inga ajratilishini aniqlab, daftaringizga yozing.

Quyosh- Yerga eng yaqin bo'lgan olov sharidir. U quyosh sist-

emasining o'rtasida joylashgan. Quyosh- yerdagi yorug'lik va i-


ssiqlik manbaidir. Uning atrofida 8 ta sayyora aylanib turadi. Bul-

ar: Merkuriy, Venera, Yer, Mars, Yupiter, Saturn, Uran, Neptun s-

ayyoralaridir. Sayyoralarning yulduzlardan farqi shuki, ular nu-

r sochmaydi, quyoshdan tushgan nurni qaytaradi xolos. Quyosh ham aslida katta bir yulduz. Faqat, qizib yotgan yulduz.

7. Rasmlarga qarab, tushirib qoldirilgan bo'g'inlarni toping.



say....ra



.... yu....



is.... loq




av....mo....



....na....ya



....tir....



asa....ri ko'....nakqi...

8. O'zbekistonda qish fasli qanday o'tishi haqida nimalar bilasiz? Siz qish fasli qanday bo'lishini xohlar edingiz? Mana shular haqida yozing.

9. Guruh bo'lib ishlaymiz. 1-guruh bitta unli tovushning yolg'iz o'zi bitta bog'in hosil qiladigan so'zlarga misollar topadi. 2-guruh esa bir bo'g'inda ikkita undosh yonma-yon kelgan so'zlarga misollar topadi.

Diqqat! Qaysi guruh eng ko'p va to'g'ri misollar topsa o'sha guruh g'olib bo'ladi.

10. Matnni ovoz chiqarib o'qing²⁴. Tushunmagan so'zlaringizni yozing va ularning ma'nosini izohli lug'atdan toping.

2018-yilning 13-sentabr kuni Qashqadaryo viloyatida joylashgan Hisor davlat qo'riqxonasi xodimlari kutilmagan hodisaga duch kelishdi. Qo'riqxonaning Qizilsuv bo'limi hududidan ilvirnsning 3-4 oylik bolalari topildi. Bu voqeaning kutilmaganligi shundaki, O'zbekiston tarixida ilk bor ilvirnsning bolalari uchratildi va suratga tushirildi.

²⁴ Matn kun.uz internet sahifasida e'lon qilingan xabar asosida tayyorlangan. <https://kun.uz/uz/89521291>

Ona ilvirs bolalarini bir joyga qo'yib, o'zi ov qilgani ketgan. U ov jarayonida boshqa ilvirs bilan olishuv vaqtida o'lgan bo'lishi mumkin. Odatda, ilvirslar tunda ov qilishadi, kunduzi qorlar va qoyalar ostida uxlashadi. Ilvirslar ovga chiqqanda bolalarini uch-to'rt kungacha yolg'iz tashlab ketish odati bor. Shu bois qo'riqxonalar nazoratchilari ilvirchalarni bir hafta topilgan joyida ushlab turishgan, ammo ona ilvirs qaytmagan.

Ilvirs bolalari keyinchalik Toshkentdagi hayvonot bog'iga jo'natilgan. Ulardan biri (erkagi) oyoq qismidan og'ir yarador bo'lganligi sabab nobud bo'lgan. Hozirda urg'ochi ilvirs hayvonot bog'ida saqlanmoqda. U mustaqil yashay olish, ov qilish darajasiga yetsa, tabiat bag'riga qo'yib yuboriladi.

11. Matn asosida savollarga javob bering

1. Ilvirsning topilishi nima uchun kutilmagan voqea bo'ldi?
2. Ona ilvirs nega qaytib kelmadi deb o'ylaysiz?
3. Nega urg'ochi ilvirs tuzalib ketganidan keyin uni tabiat qo'yniga qo'yib yuborishmoqchi?
4. Ilvirslarning bunday kamyob ekanligiga nima sabab deb o'ylaysiz?

“MAXSUS FANLARNI O‘QITISH METODIKASI” FANINING TIL TA‘LIMIGA OID MODULIDAN NAZORAT ISHI OLISH UCHUN TAVSIYALAR

Mazkur fan magistraturaning 2-kursida o‘tilgani uchun talabning bilimni baholash uchun fanga doir mavzular bo‘yicha kichik tadqiqot o‘tkazish talab qilinishi maqsadga muvofiqdir. Bu kabi nazorat magistrantni ilmiy tadqiqot qilishdagi adabiyotlar bilan ishlash, ilm-fandagi mavjud nazariyani amaliyot bilan bog‘lab tanqidiy tahlil qilish, tahlil natijalari bilan ilmiy tadqiqot xulosasini farqlash, fikrni ilmiy asoslash kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi. Bu ko‘nikmalar magistrantning kelgusi faoliyatida juda muhimdir. Tadqiqot uchun mavzu o‘qituvchi tomonidan tavsiya etilishi, shuningdek, fan yo‘nalishiga mos ravishda magistrant tomonidan mustaqil tanlanishi ham mumkin. Tadqiqotni baholash hozirda amalda bo‘lgan oraliq va yakuniy baholash tarzida o‘tkazilishi mumkin. Ma‘lumki har qanday tadqiqot ilmiy adabiyotlarni o‘rganib chiqish, shu vaqtgacha mazkur mavzu va unga aloqador mavzular yuzasidan qanday ishlar qilingani bilan tanishishdan boshlandi. Har bir ilmiy tadqiqot qabul qilingan xalqaro standartlarga ko‘ra kirish, tadqiqot metodi, tadqiqot natijalari, natijalar tahlili, xulosa va adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘ladi. Oraliq nazorat uchun kirish qismi va tadqiqot metodi qismlariga baho qo‘yilishi mumkin. Bu tadqiqot jarayonida talabning ilmiy faoliyat jarayoniga munosabat sifatida uning yutuqlari, xato va kamchiliklarini tadqiqot jarayonida anglab yetishiga va ularni o‘z vaqtida to‘g‘rilashga yordam beradi.

Til ta‘limida har qanday tadqiqotni amalga oshirish uchun bilim, nazariya, ular bilan bog‘liq hodisalarni tushunish kerak. Kundalik hayotimizda o‘zimiz duch kelgan muam-

molarni hal qilish uchun izlanish olib boramiz. Ba'zan qaysidir harakat natija beradi, deb hisoblab, o'shani bajaramiz, uning nima uchun natija berishini tushunmasligimiz ham mumkin. Til ta'limida ilmiy tadqiqot qilishning asosiy maqsadi mavjud nazariyalarni amaliyot bilan asoslash, ta'lim tajribasi, o'rganish jarayoni va ta'lim natijasi o'rtasidagi bog'liqlikni asoslash demakdir. Kengroq qaralganda, ilmiy tadqiqot qilish nazariy bilimni shakllantirish demakdir²⁵.

Nazariy bilim ma'lum hodisaning tabiatini tushuntira oladigan tizimli ravishda shakllantirilgan bilim demakdir. Til ta'limi haqidagi nazariy bilim esa o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro muloqot qanday kechishi, bu muloqot o'qituvchi va o'quvchi uchun qanday ahamiyatga ega ekanligi, bu muloqotning asosida nima yotishi, uning til o'rganish jarayoniga ta'siri qandayligi haqidagi qarashlardan tashkil topadi.

Til ta'limida olib boriladigan tadqiqotlarning maqsadi ma'lum nazariya ma'lum hodisani tushuntirish uchun qanchalik muvofiq keladi – shuni aniqlashdir. Buni nazariyaning validligi deb atash mumkin. Biror nazariyaning validligi yuqori degani uni dalillovchi hodisalar ko'p degani. Aksariyat tadqiqotchilar shunday nazariyalarga tayanib izlanish olib boradilar. Ammo shuni ham unutmaslik kerakki, nazariya qanchalik asosli bo'lmasin, uni yakuniy va tugal deb bo'lmaydi, chunki hayot davom etarkan, mavjud nazariyalar bilan tushuntirib bo'lmaydigan yangi faktlar topiladi.

Shunday ekan, til ta'limidagi tadqiqotlar ham doim davom etadi va til ta'limi jarayonini tushunishimiz uchun yangi xulosalar taqdim etadi.

²⁵ Methods of Research on Teaching the English Language Arts: The Methodology Chapters From the Handbook of Research on Teaching the English Language ... & National Council of Teachers of English Routledge; 2nd Edition, 2004.. Pp. 1-22

Til ta'limini ilmiy tadqiq qilish – til o'qitish va o'rganishning ma'lum aspektini ma'lum reja asosida metodik jihatdan tadqiq qilish demakdir.

Til ta'limida ilmiy tadqiq qilishda izlanuvchi usulbiy qo'llanma bilan ilmiy tadqiqotni farqlay olishi kerak. Usulbiy qo'llanma ilmiy tadqiqot xulosalarini amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan bo'ladi. Ilmiy tadqiqot ma'lum bir hodisani tadqiq etib jarayon va natija o'rtasidagi bog'liqlik haqida xulosa chiqaradi. Masalan, til o'zlashtirish jarayoni tadqiq qilinganda bolaning so'z ma'nosini o'zlashtirishi shu so'zni qancha ko'p turli kontekstda qabul qilishiga bog'liq ekanligini aniqlangan – bu ilmiy tadqiqot. Endi shu tadqiqot xulosasining amaliyotga tatbiqi o'laroq bolaga yangi so'zlarni o'rgatish uchun bir so'zni turli kontekstda berish o'qitish texnologiyasi sifatida tavsiya qilinishi mumkin – bu uslubiy ko'rsatma.

Shuningdek, ilmiy tadqiqot biror o'qituvchining o'qitish jarayoni haqidagi shaxsiy tajribasiga asoslangan qarashlaridan ham farqlidir.

Talabaniy bilimni nazorat qilish uchun quyidagi mavzular tavsiya qilinadi:

1. O'zbek adabiy tili va standart o'zbek tili
2. Ona tili darslarida qo'llanadigan metodlarning tanqidiy tahlili.
3. Ona tili darslarida kommunikativ yondashuvni qo'llash
4. O'zbek tili standartini yaratish va til ta'limi masalasi
5. Til ta'limida makrostrategiyalarni belgilash
6. Postmetod ta'limning o'ziga xosliklari
7. Til va adabiyot ta'limida jahon standartlari
8. Til o'qitish darslarida o'rganuvchining mustaqilligini qo'llab-quvvatlash.
9. Til malakalari integratsiyasi.

10. Umumiy lisoniy malaka va ijtimoiy xoslangan lisoniy malaka.
11. Lisoniy malakani rivojlantirish makrostrategiyalari.
12. Ona tili ta'limida lingvistik bilimni kontekstda berish.
13. Til o'qitish nazariyalari tahlili.
14. Badiiy-amaliy konsepsiyaning ona tili ta'limida namoyon bo'lishi.
15. Nazariy-falsafiy konsepsiyaning ona tili ta'limida namoyon bo'lishi.
16. Ilmiy-tadqiqiy konsepsiyaning ona tili ta'limida namoyon bo'lishi.
17. Qadriyatlarga asoslangan konsepsiyaning ona tili ta'limida namoyon bo'lishi.
18. Ona tili darslarida eshitib tushunish malakasini rivojlantirish (nazariy asosi va metodlar)
19. Ona tili darslarida o'qib tushunish malakasini rivojlantirish (nazariy asosi va metodlar)
20. Ona tili darslarida og'zaki nutq malakasini rivojlantirish (nazariy asosi va metodlar).
21. Ona tili darslarida yozma nutq malakasini rivojlantirish (nazariy asosi va metodlar).
22. Ona tili darslarida lug'at boyligini rivojlantirish (nazariy asosi va metodlar).
23. Ona tili darslarida grammatik bilimni rivojlantirish (nazariy asosi va metodlar).
24. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda grammatik bilim berishning o'ziga xos jihatlari.
25. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda lisoniy malakani rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari.

GLOSSARIY

Audiolingualizm – eshitib takrorlash orqali til o‘rgatishga mo‘ljallangan til o‘qitish metodi

Bixeviorizm (ing. behaviour xulq) — 19-asrning oxiri — 20-asrdagi amerika psixologiyasining yetakchi oqimlaridan biri. B. ta’limoti asosida odam va hayvon xulqida tashqi muhitdan bo‘ladigan ta’sir, qo‘zg‘atuvchi (stimul) ga javoban yuzaga keladigan xattiharakat va unga taalluqli nutqiy va hissiy javoblarning majmui yotadi. B. introspektiv psixologiya inqirozi sharoitida va hayvonlar psixikasini eksperimental tadqiq qilish ta’siri ostida yuzaga kelgan²⁶

Empirik – tajribaga asoslangan

Fikrlashga undaydigan savollar - o‘rganuvchilarning biror masala yuzasidan qarashi va talqini so‘raladi;

Grammatizm – til o‘qitishda grammatik qonun-qoidalarni asosiy o‘ringa qo‘yish

Kategoriya (yun. kategoria — mulohaza, fikr; belgi) (falsafada)— voqelikdagi hodisalar va bilishning muhim, umumiy xususiyat hamda munosabatlarini aks ettiruvchi eng umumiy va asosiy tushunchalar. K. bilish va ijtimoiy amaliyot tarixiy taraqqiyotining umumlashgan natijasi bo‘lib vujudga kelgan²⁷.

Kommunikativ malaka – ma’lum tilda muloqotga kirisha olish malakasi

Kommunikativ yondahsuv – til o‘qitishda tilning muloqot funksiyasini egallashga urg‘u berish

Konsepsiya – [lot. conceptio – to‘plash, birlashtirish; tizim; ibora] qarashlar, fikrlar yo‘nalishi tizimi, fikr yuritish, dunyoni anglash usuli. Mazkur fan doirasida konsepsiya til

²⁶ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Bixeviorizm>

²⁷ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kategoriya>

o 'qitish nazariyalasi uchun asos bo'lgan tushunchalarni anglatadi.

Kontekst (lot. contextus — jips, bog'lanish, qo'shilish) — og'zaki yoki yozma nutq (matn)ning nisbatan tugal qismi. K. o'z tarkibidagi so'zlar yoki iboralarning ma'nolarini aniqlashga imkon beradi. U poetika bilan bog'liq bo'lib, yozuvchi mahoratini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi²⁸.

Kvantitativ – hisob-kitobga oid

Ma'lumot berishni talab qiladigan savollar - o'rganuvchi faktik ma'lumot bilan javob berishi kerak bo'lgan savollar: ism, adres va hkz;

Metod (yun. metodos — bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) — voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'lyo'riklar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli²⁹.

O'rganish imkoniyati – til o'rganuvchining o'rganish jarayonida tilga oid har qanday turdagi ma'lumotning samarali qabul qilishi uchun sharoit

O'rganish - qabul qilingan ma'lumotning qisqa muddatli xotiradan uzoq muddatli xotiraga o'tishidir.

O'zlashtirish – tilga oid qonun-qoidalarni amalda qo'llay olish ko'nikmasining shakllanishi

Postmetod ta'lim – metodga alternativ sifatida qaraladi va o'qituvchi mustaqilligini birinchi o'ringa qo'yadi. Unga ko'ra har bir o'qituvchi o'z amaliyotidan kelib chiqib til o'qitish nazariyasini yaratishi mumkin

Pragmatizm (yun. pragmatos — ish, harakat) — falsafiy ta'limot. 19-asrning 70-yillarida AQSH da shakllanib keng rivojlandi, bu mamlakat ma'naviy hayotiga katta ta'sir ko'rsatdi. O'tmish falsafasini hayotdan ajralib qol-

²⁸ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kontekst>

²⁹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Metod>

gan, mavhum, kuzatuvchan harak-terga ega, deb bilgan. P. vakillari «falsafani ta'mirlash» da'sturini olg'a surdilar. Ular falsafa borliq va bilishning ilk asoslarini idrok etishdan iborat bo'lib qolmasligi kerak, balki kishilarning oldida ko'ndalang bo'lib turadigan, turli hayotiy vaziyat, faoliyat jarayonida ular duch keladigan muammolarni hal qilishi kerak, deb hisoblaydilar. P. amaliyotda insonga nima ko'proq foyda bersa, o'shanga ko'proq ahamiyat berish zarur, degan g'oyani ilgari suradi. P.ning asosiy g'oyalari Ch. Pirsnnki bo'lib, qoidalarini U. Jems, J. Dyui, F.K. S. Shiller, J.G.Mid ishlab chiqqanlar³⁰.

Qisqa muddatli xotira – inson ma'lum bir axborotni qabul qilayotganda zarur belgilarni saqlab turadi. Masalan, gap aytilganda uni tushunib olguncha so'zlar qisqa muddatli xotirada saqlanadi. Qisqa muddatli xotira faqat ayni damda qabul qilinayotgan axborotga xizmat qiladi

Statistika (lot. ctatus — boyluk, davlat) — 1) turli hodisalar va jarayonlarni miqdoriy hisoblash, ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish yo'li bilan ijtimoiy hayotning umumiy qonuniyatlarini o'rganadigan ijtimoiy fanlar tarmog'i. Tor ma'noda S. bironbir hodisa yoki jarayon to'g'risidagi jamlanma ma'lumotlar (ko'rsatkichlar) majmui (to'plami)ni bildiradi. S. murakkab va sertarmoq fanlar majmuidan iborat bo'lib, ijtimoiy hayotning xilma xil hodisalarini o'rganadi va tahlil etadi³¹.

Tanlash savollari - ular o'rganuvchidan o'qituvchining fikriga qo'shilish yo qo'shilmaslik yoki berilgan ro'yxatdan kerakli javobni tanlash kerak bo'ladi;

Til tizimi – har qanday tabiiy tilning o'zaro munosabatlar bilan bog'langan, muayyan birlik va butunlikni tashkil etuvchi lisoniy unsurlari majmui. Til tizimining har bir

³⁰ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Pragmatizm>

³¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Statistika>

tarkibiy qismi alohida-alohida emas, balki tizimning boshqa tarkibiy qismlariga qarama-qarshi qo'yilgandagina mavjud bo'ladi.

Uzoq muddatli xotira - umri bo'yi yig'ilgan axborotni saqlaydi

Verbal xulq – insonning tildan foydalanish odatlari, ko'nikmalari

Xotira — in'ikos etilgan narsa va hodisalarni yoki o'tmish tajribalarni esda qoldirish va zarur bo'lganda tiklashdan iborat psixik jarayon. U nerv sistemasi xususiyatlaridan biri bo'lib, tashqi olam voqealari va organizm reaksiyalari haqidagi axborotni uzoq saqlash hamda uni ong faoliyatida va xulq, xatti harakat doirasida takror tiklash qobiliyatida namoyon bo'ladi. Xotira- individning o'z tajribasida esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi xotira deb ataladi. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Xotira>

Xulosa chiqarish/asoslashga undaydigan savollar - o'rganuvchilarni o'z javoblarini asoslashga, bergan javobiga mos jarayon yo qoidani aytishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Azimova I., Mavlonova K., Kuldasheva S., Tursunov Sh. O'zbek adabiy tili: amaliy qo'llanma. Toshkent, 2019. 158 b.

2. Azimova I. O'zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy pertsepsiyasining psixolingvistik tadqiqi. Monografiya. Toshkent, 2020. B.164.

3. Azimova, I. Ona tili ta'limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi. *Global ta'lim va milliy metodika*. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent, 2019. B. 215-224.

4. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. Toshkent, 1997.

5. Dahan, D. Magnuson, J.S. (2006) Spoken Word Recognition. In *Handbook of Psycholinguistics*. Elsevier Inc. P. 249-284.

6. Douglas Brown, H. (2002). English Language Teaching in the "Post-Method" Era: Toward Better Diagnosis, Treatment, and Assessment. In *Methodology in Language Teaching*. Cambridge University Press. P. 9.

7. Ellis, A.W., & Young, A.W. (1988). Human cognitive neuropsychology. Hove, UK: Lawrence Erlbaum Associates Ltd.

8. Jo'rayev A. Standart o'zbek tili. Toshkent, 2017.

9. Krashen S. (1982). Principles and Practice in Second Lanugage Acquisition. Pergamon Press Inc. P.

10. Kumaravadivelu B. (2003). Contextualizing linguistic input.// *Beyond Methods: Macrostrategies for Language Teaching*. Yale University Press. 2003. Pp.204-224.

11. Kumaravadivelu, B. (2003) Understanding postmethod pedagogy // *Beyond Methods: Macrostrategies for Language Teaching*. Yale University Press. Pp.23-32.

12. Kumaravadivelu, B. *Beyond Methods: Macrostrategies for Language Teaching*. Yale University Press. 2003.
13. *Methods of Research on Teaching the English Language Arts: The Methodology Chapters From the Handbook of Research on Teaching the English Language ...* & National Council of Teachers of English Routledge; 2nd Edition, 2004.. Pp. 1-22
14. Murodova A. Eshitib qabul qilishda matnda ifodalangan ma'lumot dekodlanishining tajribaviy tadqiqi. *Global ta'lim va milliy metodika masalalari*. Ilmiy-anjuman materiallari. Toshkent, 2020. B. 179-184; Murodova A. Ona tili ta'limida eshitib tushunish malakasining o'rni. *Til va adabiyot ta'limi* jurnali. Toshkent, 2019. # 7. B. 13-14.
15. Nunan, D. (1991) *Language Teaching Methodology*. Prentice-Hall. Pp.25-35.
16. Richards, J. (2002) *Theories of Teaching in Lanugage Teaching. // Methodology in Language Teaching*. Cambridge University Press. Pp. 19-26.
17. Richards, J. (2002) *Theories of Teaching in Lanugage Teaching. In Methodology in Language Teaching*. Cambridge University Press. P. 20
18. Rustamova Sh. 12-13 yoshli bolalar nutqining sintaktik tahlili (ixtisoslashgan va oddiy maktab o'quvchilari misolida).// *Global ta'lim va milliy metodika masalalari*. Ilmiy-anjuman materiallari. Toshkent, 2020. B. 381.
19. Swan, M. (2000) Seven bad reasons for teaching grammar and two good ones. // *Methodology in Language Teaching*. Cambridge University Press. Pp.148-152.
20. Taylor E. (2002). *Research in your own classroom*. In *Methodology in Language Teaching*. Cambridge University Press. P.397-404
21. Zahorik, J.A. (1986). *Acquiring teaching skills*. Journal of Teacher Education (March-April), 21-25.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanining til ta'limiga oid fanlar moduli bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlarini o'tish.....	5
1-mavzu. Til o'qitish nazariyalari	5
2-mavzu. Til o'qitish metodlarining tanqidiy tahlili	13
3-mavzu. "Postmetod" ta'lim tushunchasi va uning tamoyillari	21
4-mavzu. O'rganish imkoniyatlari va strategiyalari	26
5-mavzu. Ta'lim aktlari monitoringi.....	29
II. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanining til ta'limiga oid fanlar moduli bo'yicha amaliy mashg'ulotlarini o'tish.....	33
6-mavzu. O'qish, yozish, tinglash va gapirish malakalarini shakllantirish	34
7-mavzu. Til ta'limi va til standarti masalasi.....	60
8-mavzu. Lingvistik bilimni kontekstda berish.....	64
III. "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" fanining til ta'limiga oid modulidan nazorat ishi olish uchun tavsiyalar.....	85
Glossariy	89
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	93

IRODA AZIMOVA ALISHEROVNA

**MAXSUS FANLARNI
O'QITISH METODIKASI**

(Til ta'limiga oid fanlar moduli)

Uslubiy qo'llanma


«HILOL-NASHR» nashriyoti
Toshkent — 2020

Muharrir: *Yorqinjon Haydarov*
Sahifalovchi: *Habibulloh Shukrulloh*
Musahhih: *Zulfiya Rashidova*

Nashr litsenzyasi № AI 235, 13.02.2013-yil.
Bosishga ruxsat etildi 14.01.2020. Bichimi 84x108 ¹/₃₂.
Times New Roman garniturası. Ofset bosma. Bosma tabog'i 6.
Shartli bosma tabog'i 5,40. Adadi 300 nusxa. Buyurtma № 119.

“MUHARRIR NASHRIYOTI” МЧЖ bosmaхонасида chop etildi.
Тошкент шаҳри, Сўғалли ота 5 уй.

ISBN 978-9943-6459-7-4



9 789943 645974